



# MAMLAKATIMIZ POYDEVORI BO‘LGAN MAHALLANING IQTISODIY ZAMINI MUSTAHKAM BO‘LSA, ODAMLARNING ERTANGI KUNGA ISHONCHI ORTADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 3-aprel kuni Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida ishtirok etdi. Shuningdek, davlatimiz rahbari poytaxtda olib borilayotgan bunyodkorlik ishlari, yangi ta‘lim va turizm obyektlarida yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi, Yangi Toshkent shahrining ilk inshootlari qurilishini boshlab berdi.



Davlatimiz rahbari Xalq deputatlari Toshkent shahri Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi so‘zining avvalida poytaxt jamoatchiligi bilan ko‘rishib turganidan mamnunligini ta‘kidlab, bugungi kundagi dolzarb masalalarga to‘xtaldi. Dunyodagi, jumladan, hamkor davlatlardagi vaziyatning iqtisodiyotimizga, aholi daromadlariga salbiy ta‘sirini kamaytirish eng muhim vazifalardan ekani ta‘kidlandi.

— Har qanday bino tashqi ta‘silarga bardosh berishi uchun uning poydevori mustahkam bo‘lishi shart. Mamlakatimiz poydevori, bu — mahalla. Mahallaning iqtisodiy zaminini mustahkam bo‘lsa, odamlar daromadi ko‘payib, yaxshi yashashga

uyi, bolasini o‘qitishga sharoiti bo‘lsa, ertangi kuni uchun xotirjam bo‘lsa, shunda barqarorlik, taraqqiyot bo‘ladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu nuqtay nazardan, mutasaddilar faoliyatidagi sustkashliklar, tumanlarda ishga solinmayotgan imkoniyatlar ko‘rsatib o‘tiladi.

Masalan, Toshkent shahrida loyiha qilish istagidagi investor va tadbirkorlar ko‘p. Lekin buning uchun yer kam. Foydalanilmayotgan joylarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, 979 ta yer uchastkasini auksionga chiqarish, qishloq xo‘jaligidan sanoat va aholi punkti toifasiga o‘tgan 175 gektarlik yerini berish orqali ularga sharoit yaratish mumkin.

Yangihayot tumanida 764 gektar yerda “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasi tashkil etilmoqda. Xorijiy va mahalliy tadbirkorlar u yerda 2,5 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha taklif bildirgan. Bu hududda yanada ko‘proq loyihalarni joylashtirib, o‘n minglab ish o‘rni ochish imkoniyati bor.

Iqtisodiy faol aholidan 80 mingi ishga muhtoj. Shu bilan birga, poytaxtdagi korxonalar va tashkilotlarda 98 ming bo‘sh ish o‘rni mavjud.

Jamoat xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilikni jilovlash ishlari ham yangi yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqish zarur. Toshkent shahri aholisi turmushini yanada

yaxshilash uchun bu kabi qilinadigan ishlar juda ko‘p. Shu bois, sessiyada tashkiliy masala ko‘rildi. Davlatimiz rahbari Toshkent shahri hokimi vazifasini bajarib kelayotgan Shavkat Umurzoqov nomzodini poytaxt hokimi lavozimiga tavsiya etdi.

Sh.Umurzoqov 1979-yilda Toshkent shahrida tug‘ilgan. Ko‘p yillar prokuratura tizimida ishlagan. 2018-2023-yillarda “O‘zavtosanoat” aksiyadorlik jamiyati boshqaruvi raisi bo‘lgan. U o‘tgan yil martdan buyon Toshkent shahri hokimi vazifasini bajarib kelmoqda. Mahalliy kengash deputatlari ham bir yil davomida uning ishiga baho berish uchun yetarli imkoniyatga ega bo‘ldi.

Xalq deputatlari, jamoatchilik vakillari so‘zga chiqib, nomzod haqida fikrlarini bildirdi. Ovozga qo‘yish natijalariga ko‘ra, Shavkat Umurzoqov Toshkent shahri hokimi etib tasdiqlandi.

Prezident Toshkentda natija qilish uchun imkoniyat ham, resurs ham, sharoit ham yetarli ekani, buning uchun shahar va tuman hokimlari, iqtisodiy kompleks vakillari uyg‘onib, katta marralar olib, qattiq ishlashi kerakligini ta‘kidladi.

Yig‘ilishda shaharni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish imkoniyatlari Yunusobod tumani misolida tahlil qilindi.

So‘ngi yetti yilda tumanga 1 milliard 700 million dollar xorijiy investitsiya kiritilib, korxonalar, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari 3,5 mingtacha, ish o‘rinlari 20 mingtacha ko‘paydi. 6 ming xonadonli yangi uy-joylar qurildi, 8 mingtacha yangi o‘quvchi o‘rni tashkil qilindi, 3 ta oliygoh ochildi.

Yunusobod hududi bo‘yicha Toshkent shahrida birinchi, aholi soni bo‘yicha esa ikkinchi o‘rinda turadi. Tumanda 64 ta mahalla bo‘lib, 376 ming aholi istiqomat qiladi.

Hudud soliq tushumlari hajmi bo‘yicha yetakchi. Lekin aholi jon boshiga hisoblaganda yuqori emas. Tumanning poytaxt sanoatidagi ulushi eng oxirgi o‘rinda.

Davomi 2-betda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

## SH.B.UMURZAKOVNI TOSHKENT SHAHAR HOKIMI LAVOZIMIGA TAYINLASH TO‘G‘RISIDA

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 15-band va 124-moddasiga asosan hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining qaroriga muvofiq, Shavkat Buranovich Umurzakov Toshkent shahar hokimi lavozimiga tayinlansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri, 2024-yil 3-aprel

SHARH

## JAMIYAT BAROMETRI

O‘zbekistonda BOLALAR KAMBAG‘ALLIGI darajasi SEZILARLI KAMAYDI

3



Ehtirom

# XALQIM DEGAN ZOTLARNI HAQ HAM QO‘LLAR EKAN-KU!..

Asr — Yigirma birdir. Yigirma to‘rtidir sana. Dunyo alg‘ov-dalg‘ov-u xavf-xatar ko‘pdir yana. Turfa davlatlar aro qaltis obu havodir, Boshida ming bir tashvish, ming bir o‘y va xavotir — Yo‘lboshchi el kezadi. El dardini sezadi. Mahallama-mahalla, xonadonna-xonadon — Yo‘lboshchi el kezadi. Bahor kechikdi bu yil. El ham ichikdi bu yil, Orzu-niyatlar mo‘ldir katta-kichikda bu yil. Manzil-bamanzil yurib, ko‘ngilma-ko‘ngil kirib — El hayot-u turmushin o‘z ko‘zi bilan ko‘rib, Aytmangizkim: shunchaki kezib yurar el aro, Kezib ham sezib yurar har taqdir, har dil aro. El-ulus shodu xandon, bari el lol-u hayron: Bunaqasi bizlarda bo‘lmagandir hech qachon! El holini el kezib bilsa bo‘lar ekan-ku! Bilsa bo‘lar ekan-ku! Qilsa bo‘lar ekan-ku!

Prezident gaplari — bir millatning dardlari, Prezident dardlari — elning dardlar daftari. O‘zbek, ro‘yi jahonda ovozang yo‘qolmadi, Sha‘ningga otilmagan bir tosh yo‘q qolmadi. Nursiz paykallar aro egilib erta-yu kech, Sabr kosang to‘ldi-yu, kosang oqarmadi hech! G‘arib, tiyra uylaring nurga to‘lar ekan-ku! Qilsa bo‘lar ekan-ku! Qilsa bo‘lar ekan-ku! Bu kunlarga biz yillar ko‘p yo‘llar yurib keldik, O‘zimizni o‘tga ham, cho‘qqa ham urib keldik. Haqsizlikni garchi ko‘p ko‘ribmiz, birodarlar, Yangi O‘zbekistonda turibmiz, birodarlar!

Sirdaryo, Sayxunobod — har mahalla-ko‘y obod, Bo‘lmog‘i-chun har ko‘ngil, ong-u fikr-u o‘y obod, Eng avvalo har bir qalb, dili uyg‘otish kerak, Har kishini, hammani, elni uyg‘otish kerak! Cheksiz dasht-u qirlarga ko‘klam kelmayin hali, Navro‘ziy nasimlarning mayin yelmayin hali — Surxondan to‘ Xorazm — mahzun ko‘ngillargacha, Munis muallimlar — opa-singillargacha — Milyon-milyon dillarga bahor kelar ekan-ku! Qilsa bo‘lar ekan-ku! Qilsa bo‘lar ekan-ku!

Qalamqosh qaldirg‘ ochlar — elchi egachilaring, Qayga ketdi, deb so‘rar “O‘qchi”, “Egarchi”laring?! Ikkovi bir egarni minib ketdi, der birov, Qodiriy muzeyiga tinib ketdi, der birov. Moziy ishlari garchi g‘ayridir, g‘ayrilidir, Unga qaytib ish ko‘rmoq hamisha xayridir. Yetgin deb avlodlarga bu o‘tinch, iltimosni, Men “O‘tkan kunlar”ingdan oldim bu iqtibosni. Tong sahar ko‘rsangizkim — bo‘lmish bir shahar paydo, Kimni etmas, yorlonar, ko‘rkam bu shahar shaydo! Butun el shodu xandon, xalq-u xaloyiq hayron: Bundayin mo‘jizani ko‘rganmi hech bir zamon? Hamshaharlar, mehmonlar barcha birday hayratda: Xalq uchun, Vatan uchun bu bir sharaf, albatta!

El egasi el kezar — saylabmas yo saralab, El bilan suhbat qarar el aro, el oralab. Yetti qat falaklarni ko‘zlab bo‘ylar ekan-ku, Osmono‘par “siti”lar qursang bo‘lar ekan-ku!

Bor-yo‘g‘i olti yilmi, yetti yil bundan burun, Bir maktabga kirolmay talashgan edik o‘rin. Rufat Risqiyevdan dil armonlarnin so‘rgaysiz, So‘ng Bahodir Jalolning maktabin bir ko‘rgaysiz. Or-u nomus, matonat zamonidir bu zamon, Bunda el-yurt mushtlari kamol topgay begumon. Kapalakday qizimiz Diyora Keldiyorning — Zafari sharafidir aslida el-diyorning. Bayrog‘ingni har uyya ilsa bo‘lar ekan-ku! Qilsa bo‘lar ekan-ku! Qilsa bo‘lar ekan-ku! Men davr-u zamoninni she‘rga solsam, avvalo, Tavallo aylab kelar jadid bobom Tavallo: Biz yetmagan kunlarning g‘oyasini asrangiz, Yaratganning Yerdagi soyasini asrangiz! Ey sen, olamga sochgan yog‘du, nur-ziyo, Vatan — Boborahim Mashrabday aziz, avliyo, Vatan! Har zarrai tuprog‘ing — pand-hikmat maktabidir, Har o‘g‘il-qiz, qarog‘ing — bu Ibrat maktabidir. Yosh ko‘ngillar she‘r aytib zavvqa to‘lar ekan-ku! Qilsa bo‘lar ekan-ku! Qilsa bo‘lar ekan-ku!

El kezar bedor, uyg‘oq mamlakatning egasi — Ne bo‘lar deb bu xalqning, bu millatning ertasi? Jizzax zo‘rg‘alonlari shunchaki tarix emas — O‘n olti ming dog‘ingdir — bag‘ringdan mangu ketmas. Ey, to‘qlik zamonlarning beklari, to‘ralari, Esdan chiqdimi qullik, qaramlilik to‘rvalari? Ey, nafsing deb o‘zi xon — ko‘lankasi maydonlar, Sizni bedor etmasmi shahidlar to‘kkan qonlar?! Ne bo‘lar deb bu xalqning, bu millatning ertasi —

El kezar uyg‘oq, bedor mamlakatning egasi. Oллоhdan inoyatdir — gar dilda diyonatdir, Loqaydlik — xiyonatdir, Vatanga xiyonatdir! Dunyoni ushlab turgan uyg‘oq dillardir asli, Uyg‘oq dillar deganim — uyg‘oq ellardir asli. Ammo ro‘yi zaminda jaholat ham uxlamas, Ruzolat ham bedordir, qabohat ham uxlamas. Hakmdor bedor bo‘lsa — millat gullar ekan-ku! El-yurt bilal ekan-ku! Qilsa bo‘lar ekan-ku!

O‘zbek o‘z Rahnamosini “Ota” deb kelgan doim, Shu ellar, shu yurtlarni O‘zing asra Xudoyim! Yo‘lboshchi el kezadi — goh poyezd, goh piyoda, Bunday Vatan yo‘q boshqa Yer yuzida, dunyoda. Uyg‘oq minorlarindan yangragan azonlarini Sehridan jimirlagay yulduzli osmonlarning. Muborak kunlar aro butun xalq — bir ko‘zu qosh, Muftiy hazratlari ham Yo‘lboshchiga safardosh: Shunday zamonga yetdik armonlar davomida, Duolar ketar qator vagonlar maromida. Rizq-u barakasini O‘zi yo‘llar ekan-ku! Xalqim degan zotlarni Haq ham qo‘llar ekan-ku! Xalq ham qo‘llar ekan-ku! Har kuningga shukrlar qilsang bo‘lar ekan-ku! Bilsang bo‘lar ekan-ku!

Sirojiddin SAYYID, O‘zbekiston xalq shoiri

1Eski Toshkentning “O‘qchi”, “Egarchi” mahallalari.

# MAMLAKATIMIZ POYDEVORI BO'LGAN MAHALLANING IQTISODIY ZAMINI MUSTAHKAM BO'LSA, ODAMLARNING ERTANGI KUNGA ISHONCHI ORTADI

## Boshlanishi 1-betda

Shulardan kelib chiqib, aholi daromadlarini oshirish bo'yicha ishga solinmagan imkoniyatlar ko'rsatib o'tildi.

Xususan, Yunusobod tumanidagi 9 ta bank filiali yirik mijozlari bilan 64 ta mahalla o'rtasida "ko'pri" bo'ladi. Ulardagi oilalar daromadi ko'paysa, bank mijozi bo'lgan tadbirkorning mahsulotiga talab oshadi. Bundan tadbirkor ham, bank ham foyda ko'radi.

Endi banklarga odamlar daromadini ko'paytirish, tuman iqtisodiyotini barqaror o'stirish bo'yicha yangi mas'uliyat belgilanadi. Ish o'rni yaratgan mijozlarga kredit foizi tushirib boriladi. Hokim yordamchilari esa ishsizlarni tadbirkorlar talabi asosida o'qitadi.

Mutasaddilarga bu borada "Yunusobod tajribasi"ni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Yunusobod poytaxtning eng qulay qismida joylashgani uchun "o'sish nuqtasi" biznes ekanini hayotning o'zi ko'rsatib beryapti. Yangi investitsiyalar oqimiga sharoit yaratish maqsadida eskirgan qiyofadagi yoki davlat idoralari joylashgan binolar o'rmiida zamonaviy savdo, xizmat va ovqatlanish loyihalarini amalga oshirish mumkin. Natijada 7 mingta yuqori daromadli ish o'rmi ochiladi.

Yer o'ta cheklangan sharoitda bor infratuzilmani vertikal o'stirish orqali sanoat va savdoni rivojlantirish zarur. Xususan, dehqon bozorlarini qavat-qavat usulda kengaytirish uchun sharoit bor. Shuningdek, kichik sanoat zonasidagi bino-inshootlarni 3-4 qavat qilib, qayta qurish hisobiga qo'shimcha 200 ming kvadrat metr hosil bo'ladi.

Ijtimoiy sohada xususiy sheriklik loyihalarini ko'paytirish orqali ham mingta ish o'rmi yaratib bo'ladi. Masalan, 7-sonli shahar shifoxonasi uchun yangi bino qurilsa, bo'shaydigan yerda koreyalik investorlar 420 o'rinni ko'p tarmoqli klinikaga qurish tashabbusini bildirgan.

Umuman, o'rganishlar asosida Yunusobodda 600 million dollar investitsiya, 35 mingta yuqori daromadli ish o'rmi imkoniyatlari aniqlangan.

Hukumatga barcha tumanlarni shu tarzda o'rganib, Toshkent shahrida 250 ming yuqori daromadli ish o'rmi yaratish, 2 milliard dollar sarmoya jalb etish choralarini ko'rish topshirildi.

Sanoat, infratuzilma, tadbirkorlik va kommunal sohalarda ilg'or xorijiy tajribani joriy etish vazifasi qo'yildi.

Mahallalardagi obodlik masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Mahalla raislari va nuroniylar milliy qadriyatlarimizni tiklab, ko'cha bo'ylari va hovlilarda gulu rayhonlar ekish, daraxt o'stirish, ishkamlar qilish, ozodlik ishlariga bosh-qosh bo'lishi zarurligi aytiladi.

Davlatimiz rahbari bu boradagi faollikni rag'batlantirish maqsadida tanlov o'tkazib, yil yakuni bilan eng namunali mahallaga elektromobil sovg'a qilish taklifini bildirdi. Bu taklif olqishlar bilan qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilish so'ngida Prezident xalq deputatlari, mahalla raislari, ziyolilar va yoshlar bilan muloqot qilindi.

Shundan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev Yunusobod tumanidagi 5-umumta'lim maktabida bo'ldi. "O'zbekiston — 2030" strategiyasida ta'lim tizimi islohotlari eng birinchi vazifa etib belgilangan. Bu boradagi muhim masalalardan biri — o'quvchi o'rmlarini ko'paytirish.

Davlatimiz rahbari yangi muassasalar barpo etish bilan birga, mavjud maktablarning o'ziga qo'shimcha qavat yoki yonidan bino qurish maqsadiga muvofiqligini aytgan edi.

Mazkur 5-maktab ilgari 960 o'rinni edi. Lekin o'quvchilar soni 2 mingdan oshardi. Shu bois, o'tgan yili rekonstruksiya qilinib, qo'shimcha binolar qurildi. Natijada 1 ming 700 ta qo'shimcha o'rinni paydo bo'ldi.

Maktabda 65 ta o'quv, 12 ta chet tili va 5 ta kompyuter xonasida zamonaviy sharoitlar yaratildi. O'quvchilarni aniq fanlar, muhandislik va texnologiyalarga qiziqituvchi STEM-laboratoriya va sport zali zarur anjamlar bilan ta'minlandi. Kovorking va rekreatsiya hududi tashkil etildi. Maktab kutubxonasida 5 ming 800 dan ortiq ilmiy va badiiy adabiyotlar bor.

Bugun maktabda 2 ming 600 nafarga yaqin o'quvchi ta'lim olmoqda. O'tgan yili 165 nafar bitiruvchidan 163 nafari oliya ta'limga o'qishga kirgan.

Yurtimizda o'g'il-qizlarni yoshligidanoq kasbga yo'naltirishga katta ahamiyat qaratilmoqda. 5-maktabda ham yuqori sinf o'quvchilari tikuvchilik, pazandachilik, yog'och va metallga ishlov berish ko'nikmalarini o'rganayapti.

Prezident ushbu to'garaklardagi sharoitlarni ko'zdan kechirdi.

Toshkent shahri direktorlar kengashi a'zolari bilan subbatta o'qituvchilar mehnati va hurmati haqida so'z bordi.

— Shunday vaqtlar bo'ldiki, pedagoglikka e'tibor susayib ketdi. Hozir bu sharafli kasbning nufuzini tiklash, ularni moddiy rag'batlantirishga harakat qilyapmiz. Yangi Toshkent shahri qurilishini ham Pedagogika universiteti binosiga poydevor qo'yishdan boshlamoqchimiz. Chunki yangi O'zbekistonning birinchi zaminini — o'qituvchilar. Shuning uchun ular doim o'z ustida ishlashi, bilim va uslublarini rivojlantirib borishi kerak, — dedi davlatimiz rahbari.

Maktabning yangi imkoniyatlaridan to'la foydalanish, ta'lim sifatini Prezident maktablariga yaqinlashtirgan tarzda oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi. Davlatimiz rahbari Toshkent shahridagi 1-bolalar musiqa va san'at maktabini ko'zdan kechirdi.

Maktab o'tgan yili respublika budjeti mablag'lari hisobidan bunyod etilgan. 250 o'quvchiga mo'ljallangan. Joriy o'quv yilida 1-sinfga 145 nafar o'g'il-qiz qabul qilingan. Bu yerda yoshlar 12 yo'nalish bo'yicha maktabdan tashqari ta'lim oladi. O'quvchilar ijodiy imtihonlar asosida saralab olinadi.

Ellikka yaqin o'quv va kompyuter xonalari, tadbirlar zalida shinaam sharoitlar yaratilgan. Kutubxonada 5 ming 500 dan ortiq o'quv adabiyoti va notalar jamlangan.

Prezidentimiz san'at ma'naviy boy avlodni tarbiyalashga xizmat qilishini, bunga mehribon bolalardan boshlab shakllantirish zarurligini ta'kidladi. Shu maqsadda umumiy ta'lim tizimi bilan musiqa ta'limi dasturlarini uyg'unlashtirish muhimligi aytiladi. San'at maktablari bilan oliyog'ohlar, teatrlar va boshqa madaniyat muassasalarining hamkorligi tizimini kuchaytirish vazifasi qo'yildi.

Mamlakatimizda barcha maktablar cholg'u asboblari bilan ta'minlanib, yoshlarning qiziqish va iste'dodi rivojlantirilmoqda. Bu an'anaviy san'at yo'nalishlari bilan birga maqom, baxshichilik va mumtoz musiqa qadriyatlarimizni davom ettirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari Shayxontohur tumanidagi Gulbozor mahallasida ham bo'ldi.

Har bir mahallaning o'ziga xos analari va imkoniyatlari bor. Ular "o'sish nuqtasi"ga aylantirilib, ish o'rmlari ochish va aholi

daromadlarini oshirish manbai sifatida rivojlantirilmoqda.

Gulbozor Toshkentning tarixiy qismida, Chorsu bozori yonida joylashgan. Bu yerda yilning barcha mavsumida xorijiy turistlar ko'p keladi. Shu bois, hudud turizm xizmatlariga ixtisoslashtirildi. Ko'cha va uylarda poytaxtning qadimgi ko'rinishini saqlab qolgan holda qo'shimcha sharoitlar yaratildi.

Xususan, barcha kommunikatsiya tarmoqlari yer ostidan o'tkazildi. Ko'cha boshida tarixiy darvoza qayta tiklandi. O'yimakor ustunli katta ayvon, unga yaqin joyda hovuz barpo etildi. Milliy kashtachilik va hunarmandchilik ustaxonalari, novvoyxona, milliy oshxonalar, zargarlik do'konlari tashkil qilindi. "Non tarixi" va "Qadimgi Toshkentga sayohat" nomli ko'rgazmalar ochildi. Uch yulduzli mehmonxonaham bunyod etilmoqda.

Bu ko'cha Shayxontohur tumanida tashkil etilayotgan "turizm halqasi"ning bir qismi bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, bu yerda say-yohlar qadimiylik va milliylik muhitini his etadi.

Mahalla ahli davlatimiz rahbariga hududdagi o'zgarishlar, odamlar hayoti haqida so'zlab berdi. Bu yerda 2 ming 670 nafar aholi yashaydi. Savdo, hunarmandchilik va xizmat ko'rsatish rivojlangani natijasida mahalla ishsizlikdan xoli hududga aylangan. "Xavfsiz hudud" tizimi joriy etilgan. Bu loyiha amalga oshirilganidan so'ng barcha xonadonning daromad topish imkoniyati ancha oshgani qayd etildi.

Prezidentimiz milliy kiyimlar va amaliy san'at mahsulotlarini ko'zdan kechirdi, ularni tayyorlayotgan hunarmand xotin-qizlar bilan suhbatlashdi.

Davlatimiz rahbari mahalladagi sumalak saytida ishtirok etdi. Onaxonlar tinch-osoyshta yurtga bayramlar yarashishini, buning uchun Yaratganga behisob shukr qilishlarini aytishdi. Shavkat Mirziyoyev ularni muborak Ramazon kunlari bilan tabriklar, ezgu tilaklar izhor etdi. Xalqimizga tinchlik va farovonlik tilab duolar qilindi.

Mutasaddilarga "turizm halqasi"ni davom ettirib, sohada bandlikni oshirish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

— Zamonaviy majmualar hamma joyda bor. Biz xorijiy sayyohlarni buyuk tariximiz bilan ko'proq jalb etishimiz mumkin. Shuning uchun bu yer kecha-yu kunduz faoliyat yuritadigan turistik markazga aylinishi kerak.

Bunday etnografik maskanlarni ko'paytirish, milliy qadriyatlarimizni namoyish etish, turli festivallar o'tkazish zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Joriy yil 12-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilingan edi. Unga muvofiq, turizm maskanlarini ko'paytirish, hududlarni o'zaro bog'lovchi turizm xizmatlarini yanada kengaytirish bo'yicha ish olib borilmoqda. Buning ijrosini Gulbozor misolida ham ko'rish mumkin.

Shuningdek, "Yashil makon" loyihasi doirasida mevali va manzarali daraxtlar, gul-chechaklar ekilib, mahallaga fayz qo'shilmogda. Bundan bir yil avval, 18-mart kuni Yangi Toshkent shahrining qurilishiga tamal toshi qo'yilgan edi.

Bunyodkorlik ishlarini muvofiqlashtiruvchi kengash va direksiya tuzilib, loyihalashtirish olib borildi.

Muqaddas Ramazon oyida bu yerda ilk inshootlar qurilishini boshlash marosimi bo'ldi.

Tadbirida Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zlab, bu tarixiy voqea ekanini ta'kidladi.

— Bugun "Yangi O'zbekiston" universiteti va Toshkent davlat pedagogika universitetining kampuslari, Milliy kutubxona, Milliy teatr, Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Adabiyot muzeyi, ijod maktabi hamda Milliy maqom markaziga tamal toshi qo'yamiz. Yangi shahar qurilishi ilm-fan, ma'naviyat maskanlaridan boshlanayotgani bejiz emas. Bular ma'rifatli jamoatni barpo etish g'oyamizning asosi va namunasi bo'ladi, — dedi davlat rahbari.

Ma'rifatli jamiyatning asosiy poydevori maktab bo'lsa, muallim uning ustunidir. Shu bois, bu yerda birinchi qatorida Toshkent davlat pedagogika universitetining yangi kampusi barpo etiladi. U 20 ming talabaga mo'ljallangan o'quv binolari, 5 ming o'rinni yotoqxona, 300 o'rinni bog'cha, 616 o'rinni maktab, 588 o'rinni akademik litsey, zamonaviy sport kompleksi, madaniyat saroyi, amfiteatr va boshqa obyektlarni o'z ichiga oladi. Yuqori reytingli xorijiy oliyog'ohlar tajribasi asosida "bog'cha — maktab — universitet" yaxlitligidagi innovatsion pedagogik klaster tashkil etiladi.

"Yangi O'zbekiston" universiteti yurtimizdagi eng nufuzli oliyog'oh bo'lib, unda muhandislik, boshqaruv, axborot texnologiyalari, agrotexnologiyalar, gumanitar va tabiiy fanlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Shaharda mazkur universitet uchun ham zamonaviy kampus quriladi. Xususan, bu yerda 10 ming talabaga mo'ljallangan o'quv binolari, 1 ming 150 o'rinni oshxonaham, kutubxonaham va ichxam muzey, sport majmuasi, olimpiya suzish havzasi barpo etiladi. Shuningdek, talabalar uchun 2 ming o'rinni yotoqxona, professor-o'qituvchilarga 286 o'rinni turar joy qurib beriladi.

Navbatdagi loyiha — O'zbekiston Milliy kutubxonasi uchun yangi majmua. Bu yerda kutubxonahamda saqlanayotgan 10 milliondan ortiq adabiyotlarni munosib saqlash va bir paytning o'zida 1 ming 420 nafar kitobxonga sifatli xizmat ko'rsatish uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Uning umumiy maydoni 30 ming metr kvadratni tashkil qiladi.

Teatr san'ati xalq ma'naviyati, yoshlar tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, Yangi Toshkentda xalqaro talabalar asosida Milliy teatring muhtasham binosi barpo etiladi. Unda san'atkorlar uchun ham, tomoshabinlar uchun ham har jihatdan qulay sharoitlar yaratiladi. Kelgusida u yurtimizdagi barcha teatrlar uchun o'ziga xos ijodiy laboratoriya vazifasini bajaradi.

Shaharda Alisher Navoiy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ijod maktabi, Adabiyot muzeyi va Milliy maqom markazini jamlagan o'ziga xos ma'naviyat majmuasi ham qad rostlaydi.

Davlatimiz rahbari bu majmualarning imkoniyatlari va ahamiyatiga to'xtalib o'tdi.

— Bugun poydevori qo'yilayotgan maskanlar ko'p yillar xalqimiz ma'naviyatini boyitish, yoshlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar etib tarbiyalashga xizmat qiladi. Yangi Toshkent shahrining nafaqat yurtimiz, balki mintaqamizda ham chinakam ilm-ma'rifat va madaniyat markaziga aylanishiga katta hissa qo'shadi, deb ishonaman, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz ramziy tugmani bosib, binolar qurilishini boshlab berdi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,**  
**Ikrom AVVALBOYEV,**  
**O'ZA muxbirlari**

## Ogohlik

# KO'ZDA YOSHDAY QALQIB TURIBDI OLAM...

**Inson aqlini tanib, yoshi ulg'ayib borganida sayin boshqalar bilan mojaroga borishdan qochadigan bo'lib qoladi, bahsli vaziyatlarni o'zaro murosa orqali hal etishga harakat qiladi. O'z navbatida, fe'limizdagi bu qarash biz orqali jamiyatga, davlat siyosatiga ko'chadi. Rasmiy hisobda dunyoning yoshi 2 ming yildan oshib, aqlini tanir darajaga kelganiga ham bir necha yuz yil bo'ldi. Har holda Birinchi va Ikkinchi jahon urushi kabi mislsiz talafotlar xulosasi asosida dunyoda tinchlikni ta'minlash, o'zaro nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish bo'yicha xalqaro kelishuvlarga erishilgani, bu to'g'risida tegishli hujjatlar qabul qilingani, qolaversa, davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar rivojlanganiga ancha bo'ldi.**

Bilaks, bugun "aqlini tanigan", huquqiy asosga tayanadigan dunyo yana o'zaro qarama-qarshiliklar, qonli to'qnashuvlar qurshovida qoldi. Achinarlisi, turli xunrezligu urushlar tufayli millionlab odam, tinch aholi qurbon bo'lyapti. Mamlakatlar iqtisodiyoti izdan chiqib, taraqqiyot ortga surib tashlanmoqda.

Manbalarda keltirilishicha, notinchlik, urush sabab oxirgi besh ming yilda uch milliarddan ziyod odam hayotdan ko'z yumgan. Bular hech qachon to'xtamaydigandek. Nafs, manfaat degan balo bor ekan, to'xtamas ham kerak.

Biz insoniyat tafakkuri eng boyigan axborot texnologiyalari asri, yigirma birinchi yuz yillikda yashar ekanimiz, urushlar, vayronagarchiliklar to'xtash o'rmiaga yangi sifatlar bilan "boyib" borayotgani achinarli. Odamlarni ommaviy qirishga yo'naltirilgan qurol-yarog'larning eng zamonaviy, qirg'inbarot turlari o'ylab topilyapti va ishlab chiqarilyapti. Bugun o'zini dunyoga ustun bo'laman, deb da'vo qilayotgan gegemon davlatlar buni o'zaro "musbobaq"ga aylantirib olgani ham bor gap. Ilgari hatto tasavvur ham qilib bo'lmaydigan "aqli" raketalar, o'q-dorilar ishlab chiqarish kuchaymoqda.

Mingdan ming shukrki, yurtimiz tinch. Tinch yurtga bayramlar, to'ylar yarashadi, deydi xalqimiz. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar zamirida ana shu tinchlik-osoyshtalikni mustahkamlash, xalqimiz farovonligini oshirish maqsadi mujassam.

Tinchlik degani nima o'zi? Tinchlik bu — o'zgarlarni bezovta qilmaslik, bayram tadbirlari, to'y-tomoshamizni tinch-xotirjam, urush-janjaliz o'tkazish, farzandlarimiz bog'cha va maktabga, biz esa ishimizga bexavotir borib kelishimiz.

Qaysiki oilada tinchlik-xotirjamlik hukm sursa, o'sha joyda totuvlik, baraka bo'ladi. El-yurt tinchligi esa mamlakat taraqqiyoti, aholi farovonligiga zamin yaratadi. Mabodo aksi bo'lsa-chi? Bunday holatda to'y-tomoshaham, ko'ngilxushlik, hazil-mutoyiba, hayot lazziyatini tasavvur qilish u yoqda tursin, ko'ngilga qil ham sig'maydi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, mamlakatimizda nishonlanadigan bayram tadbirlari, ko'ngilochar maskanlar, konsert tomoshalarini, umuman, odam gavjum bo'ladigan joylarda xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratiladi. Buning juda to'g'ri ekanini so'nggi paytlarda dunyoning turli mintaqalarida sodir etilayotgan teraklar ham tasdiqlaydi. To'g'ri, kuchaytirilgan nazorat tadbirlari bir oz noqulaylik tug'dirishi, bu esa ayrimlarning toqatsizlanib, ensa qotirishiga sabab bo'lishi mumkin. Lekin bir jihatni aslo yodimizdan chiqarmasligimiz shart: ehtiyot choralarisiz juda katta talafot ko'rishimiz ehtimoli yo'q emas.

Yaqinda Moskvada sodir bo'lgan teraktidan qiyos. Aynan shunday tadbirlarning birida sodir bo'lgan xunrezlik ko'pchilikning o'limi, jarohat olishiga sabab bo'ldi, millionlab yuraklarga motam, qayg'u kirdi. Birgina mana shuning o'ziyoq xavfsizlik choralarini naqadar muhim va zarur ekanini isbotlab turibdi.



Xavfsizlik choralarini mana shu kabi har qanday ko'ngilsizlikning oldini olishini ko'p ham tushunavermaymiz. Yoki tan olgimiz kelmaydi. Shu sababdanmi, jamoat xavfsizligini ta'minlash borasidagi nazorat tadbirlarini uncha xushlamaymiz.

Joriy yil 29-mart kuni davlatimiz rahbari boshchiligidahuquqni muhofaza qiluvchi organlar va kuch tuzilmalari rahbarlari ishtirokida jamoat xavfsizligini ta'minlash masalalarini yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda ham jamoat xavfsizligiga yangi tahdid va xatarlar tobora ortib borayotgan bugungi sharoitda jamoat tartibini saqlash va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda huquqni muhofaza qilish idoralari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligiga e'tibor qaratildi.

Ichki ishlar vazirligi va Milliy gvardiya rahbariyati oldiga jamoat tartibini saqlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yanada kuchaytirish, aholi gavjum joylarda sodir etilishi mumkin bo'lgan terrorchilik harakati va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan choralarini ko'rish vazifasi qo'yildi.

Darhaqiqat, xalqimizning tinch va

ta'minlash maqsadida Toshkent shahar IIBB xodimlari savdo majmualari, ko'ngilochar maskanlari, bozor va boshqa jamoat joylarida kuchaytirilgan tartibda xizmat olib bormoqda.

Mamlakatimizning barcha hududlarida qad rostlagan, yurtdoshlarimiz hordig'i hamda kundalik yumushi uchun xizmat qilayotgan madaniy-ko'ngilochar maskanlar, yirik savdo markazlari va dehqon bozorlari, qolaversa, xiyo bonlar, sport inshootlari hamda boshqa jamoat joylarida xavfsizlikni ta'minlash borasidagi vazifalar beqamaloq bajarilmogda. Guvohi bo'layotganimizdek, dunyoda ro'y berayotgan ayanchli voqealilar makon yoki joy, millat yoki yosh tanlamaydi. Biz tinch va osoyshta, dorilamon kunlarda yashar ekanimiz, yurtimizni turli tashqi ta'sirlardan, yomon niyatli kimsalardan himoya qilishni har birimizga axldxor masala sifatida tushunishimiz muhimdir.

Xunrezlik va mudhish voqealardan himoyalash uchun yurtimiz, shahrimiz, mahallamiz, ko'chamiz tinchligi uchun barchamiz bir bo'lib birlashishimiz, ogohlilni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun jamoat joylarida shubhali ko'ringan shaxslarga e'tibor qaratish hamda ular haqida zudlik bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berish muhim.

Bundan tashqari, turli manzillarda qarovsiz qoldirilgan har qanday buyumni e'tibordan



chetda qoldirmasdan, ular haqida darhol 102 raqamiga xabar berish lozim. Va albatta, jamoat joylarida xizmat vazifasini bajarib, xavfsizlikni ta'minlayotgan huquq posbonlarining qonuniy talablarini e'tirozsiz bajarish kerak.

— Bugungi kunda yurtimizdagi 100 dan ortiq obyekt — bozorlar, yirik savdo, ko'ngilochar, dam olish majmualari va markazlari hamda fuqarolar gavjum bo'ladigan boshqa joylarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash borasida ichki ishlar organlari tomonidan boshqa huquqni muhofaza etuvchi idoralar bilan birgalikda bir qator chora-tadbirlar belgilanib, amalga oshirilmoqda, — deydi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Jamoat tartibini saqlash xizmati boshlig'i, polkovnik Sherzod Ibragimov. — Jumladan, yuqorida qayd etilgan yirik savdo va ko'ngilochar majmualarda jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida kuch va vositalar taqsimoti ishlab chiqilib, unga asosan, mingdan ortiq IIV va Milliy gvardiyaning hududiy bo'limlari shaxsiy tarkibi xizmatga jalb etib kelinmoqda.

Shuningdek, bunday joylarda o'rnatilgan barcha video-kuzatuv kameralari ichki ishlar organlarining situatsion markazlariga integratsiya qilinib, tunu kun nazorat olib borilmoqda. Bundan tashqari, ushbu joylarda kinolog xodimlar 100 dan ortiq xizmat itlari bilan xizmatga jalb etilib, namunali jamoat tartibi saqlanmoqda.

Aholi tomonidan yirik savdo va ko'ngilochar majmualarga taqiqlangan jism, predmet va boshqa buyumlar olib kiritilishining oldini olish maqsadida ushbu obyektlarning kirish-chiqish joylarida nazorat-texshiruv punktlari tashkil etilib, u yerlarga kirayotgan barcha shaxslar sinchkovlik bilan tekshiruvdan o'tkazilishi ta'minlanmoqda.

Asosiy e'tibor ushbu joylarda fuqarolarning tinchligi va osoyshtaligini ta'minlash, jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda turli ko'ngilsiz va favqulodda hodisalarning sodir etilishiga yo'l qo'yimaslikka qaratilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz, shahrimiz, har bir mahallada tinchlik va osoyshtalikni yanada mustahkamlash uchun barchamiz birdek mas'ulmiz.

**Lutfulla SUVONOV,**  
**"Yangi O'zbekiston" muxbiri**



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

SHARH

# JAMIYAT BAROMETRI

## O'zbekistonda BOLALAR KAMBAG'ALLIGI darajasi SEZILARLI KAMAYDI

**Boboravshan G'OZIDDINOV,**  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Piyodalar yo'lagi bo'ylab ishdan qaytar ekanman, bahorning yoqimli havosi, ayniqsa, mayin esayotgan shabada dilni yayratadi. Yarim kun bir joyda qadalib ishlagan kishi uchun bunday yurish jonning rohati. Shunday yoqimli hislar bilan odimlar ekanman, go'zal bir manzaraga ro'para keldim. Qarama-qarshi tomondan besh-olti yashar bola yugurib kelyapti. Go'dakning boshidan yarim metrcha tepada mitti varrak, u sohibining shijoati kabi yer-u ko'kka sig'may, goh pastlab, goh tepaga ko'tarilib uchaypti. Varrakning ipidan mahkam tutib olgan bolakay bundan zavq olib tezlashadi. Boladan o'n qadam narida onasi nim tabassum bilan masrur holda o'g'lini kuzatib kelyapti.



“Mamlakatimizda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi UNICEF bilan birgalikda bolalarning kambag'allik darajasini baholab boradi. Shu hafta mazkur yo'nalishdagi o'rganishlar natijasi e'lon qilindi. Natija quvonarli. Bolalar kambag'alligi darajasi 2021-yilda 21,5 foiz bo'lgan, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich 13,7 foizgacha kamaygan. Boshqacha aytganda, keyingi uch yilda ahvol 7,8 foizga yaxshilangan.”

Agar kimdir menga baxtni tasvirlab ber desa, hech shubhasiz, shu holatni chizib bergan bo'lardim. Zero, dunyoda farzandlar quvonchidan ortiq saodat yo'q.

Darhaqiqat, bolalar jamiyatning barometri. Ularning kayfiyati, yashash sharoitiga qarab, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash mumkin. Shu bois bo'lsa kerak, xalqaro miqyosda bolalarning yashash sharoiti muttasil o'rganilib, tahlil etib boriladi. Xususan, mamlakatimizda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi UNICEF bilan birgalikda bolalarning kambag'allik darajasini baholab boradi. Shu hafta mazkur yo'nalishdagi o'rganishlar natijasi e'lon qilindi. Natija quvonarli. Bolalar kambag'alligi darajasi 2021-yilda 21,5 foiz bo'lgan, 2023-yilga kelib, bu ko'rsatkich 13,7 foizgacha kamaygan. Boshqacha aytganda, keyingi uch yilda ahvol 7,8 foizga yaxshilangan.

Bolalik — inson dunyoni endi tanib, idrok etib, qalbi orzularga to'lib yashaydigan davr. Shu vaqtda bola dunyoni qaysi qiyofada ko'rsa, hayoti qanday kechsa, yoshi yuzdan oshganda ham o'sha kayfiyat uning fe'l-atvorida ustuvorlik qiladi. Buni Mariyam momom, onamning onasi hayoti misolida ko'rganman. Osmomni chang, g'ubor qoplasa, momom o'yanchan bo'lib qolar va mahzun ohangda “Qayerdadir urush bo'lyapti”, derdi. Bolaligi urush yillaridagi azoblar bilan o'tgan bu kayvoniy ayolning bolalik xotirasida ijtimoiy nafaqalarning umumiy qamrovi 10,8 million kishini tashkil etgan. O'tgan davrda kam ta'minlangan oilalarni bolalar nafaqasi va moddiy yordam bilan qamrab olish uchun umumiy to'lovlar miqdori 12,3 trillon so'mga teng bo'lgan. Bu mablag' 2,1 million ta kam ta'minlangan oiladan 9 million kishi va 72,5 ming benefitsiar oilaga yo'naltirilgan.



Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi turli uy xo'jaliklari guruhlarini o'rtasida ijtimoiy to'lovlarining taqsimlanishini tahlil qildi. Mutaxassislar ta'kidlashicha, mavjud ijtimoiy himoya tizimi resurslarining salmoqli qismi aholining eng kam ta'minlangan qatlami yo'naltirilmoqda. Xususan, hisob-kitoblarga ko'ra, aholining 20 foizini tashkil etadigan eng badavlat oilalar guruhidan 6 foizi ijtimoiy nafaqa oladi. Jumladan, bolalar nafaqasini oladigan uy

Ikki yil avval farzandlarim bilan safarga chiqdik. Yo'lda ketayotib nimadir bo'ldi-yu, haydovchi o'zi bilmagan holda yo'l qoidasini buzdi. Oqibatda qarama-qarshi tomondan kelayotgan mashina uchun xavfli vaziyat yuzaga keldi. Narigi haydovchi signal chalib, mashinani yo'l chetida to'xtatdi. Aybdor haydovchimiz mashinadan tushib, u tomonga yurdi. Narigisi qo'lini paxsa qilib, bagirib yaqinlashdi. Shijoatidan haydovchining jag'iga musht tushiradi, deb o'yladim. Shu payt polvonkelbat haydovchi biz o'tirgan mashina oynasidan mo'tirab qarab turgan bolalarimga ko'zi tushdi. Urgan joyida qotdi-qoldi. Bir lahza nima deyishini, qanday yo'l tutishini bilmay kalovlandi va: — Mashinangda bolalar bor ekan, hushyor bo'lmasanmi?! — dedi. So'ng indamay ortiga qaytdi. Aybdorimiz rangi dokaday oqarib rulg'a o'tirar ekan: — Yaxshiyam bolalarimiz bor ekan, bo'lmasa meni urib o'ldirardi-yov, — dedi jussasi o'zidan ikki marta katta haydovchidan hamon cho'chib turganday titroq ovoza.

Jahli chiqqan ayiqdoy vajohat bilan kelayotgan odamni birdan sipo qilib qo'rgan holat bolalar nigohi edi. U qanday yomon niyatda kelayotgan bo'lmasin, bolalarning ko'ziga yovuz bo'lib ko'rinishdan hayo qildi, nazarimda. Bu insoniyatga, xususan, xalqimizga xos go'zal fazilat. Bolajon xalqimiz, degani mana shu kabi voqealarda ko'rinadi. Endi tasavvur qiling, kimningdir bolasi og'ir vaziyatda bo'lsa, jim qarab tura olasizmi? Yo'q. Mamlakat insonlardan tashkil topadi. Shu bois, davlatning eng katta boyligi — xalq. O'z-o'zidan jamiyatda fuqarolarning umumiy jihatlari, masalan, bolajonligi bo'rtib chiqadi. Shu ma'noda, mamlakat ham o'z fuqarolariga o'xshaydi. Buni ijtimoiy himoya misolida ham ko'rish mumkin.

ish o'rnlari yaratadi. Bolalar kattalarning qaramog'ida ekan, avvalo, ularga qarovchi bo'lgan oilalar holatini yaxshilash kerak. Shu bois, kambag'allikni qisqartirish masalasiga kompleks yondashilmoqda. Ta'lim olish, kasb-hunar o'rganish, tadbirkorlik qilish, tomorqadan foydalanish uchun berilayotgan imtiyozlar zahirida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga ko'mak berish maqsadi yotibdi. Shu orqali og'ir vaziyatda qolgan oilalarning iqtisodiy holati yaxshilanadi. Muammo bilan emas, uni keltirib chiqargan sabablar bilan kurashsak, masala to'la yechimini topadi.

Kambag'allikni qisqartirish borasidagi ishlar muammoning ilidizini topib, barham berish yo'lidan bormoqda. Illo, bu islohotlar tufayli bevosita o'sha ehtiyojmand oilalarda voyaga yetayotgan bolalar hayotida ijobiy o'zgarishlar bo'ladi.

### Bu ishlarni izchil davom ettirish kerak

Tadqiqot natijasiga ko'ra, ijtimoiy himoya kamaytirilsa, bolalar kambag'alligi oshadi. Shunday ekan, bu tizimdagi ishlarni izchil davom ettirish lozim. Negaki bola uchun berilgan nafaqa ota-onaga yordam bo'ladi. Ular bu mablag'ni bolaning birlamchi ehtiyojlarini, deylik, oziq-ovqatga, ta'lim olishga yo'naltiradi. Bu esa barcha masalalar yechimiga olib keladi.

Bolalar kambag'allik darajasining kamayishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi, chin bahosidir. Shu o'rinda bunday e'tirof, o'rganishning amaliy samarasi nimada, degan savol tug'iladi. Avvalo, ushbu tahlil ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini o'rganadi. Qanchalik maqsadga muvofiq ish ko'rilayotgani aniq bahosini oladi. Shu orqali tizimning afzallik va kamchiliklarini aniqlash mumkin bo'ladi. Bu, o'z o'rnida, aholi o'rtasida ijtimoiy imtiyozlardan teng foydalanishni ta'minlash va jamiyatdagi kambag'allik darajasini pasaytirish uchun xizmat qiladi. Ya'ni yakuniy xulosaga qarab, sohani takomillashtirish choralarini taklif qilish imkonini beradi. Bu bevosita bolalarni kambag'allikdan chiqarishga zamin yaratadi, demak, ular boshqa tengdoshlari bilan o'zining teng ekanini his etadi. Mana shu hissiyot bolaning kelajagini belgilab beradi.

Xalqimiz bolalikda olingan ilmini toshga o'yilgan naqshga o'xshatadi. Tug'y'ular ham xuddi shunday. Buni yuqorida, momomning misolida aytib o'tdim. Agar bola qiyinchilikda, azob-uzubatda o'sadigan bo'lsa, unda ruhiy to'riqishlar kechadi. Bu unga butun hayoti davomida ta'sir ko'rsatishi tayin. Oddiy hayotiy misol. Katta avlod vakillari tovoqdagi oshni oxirigacha yeydi. Negaki urush va undan keyingi yillarda qattiq ocharchilik bo'lgan. Keyinchalik ham odamlar juda to'q-farovon yashagan yo'q. O'tgan asrning to'qsoninchi yillarida xalqimiz o'tish davrining sinovlarini boshdan kechirdi. Bu jarayonda bugun yoshi o'ttiz beshdan oshib, ellikka qarab borayotganlar ulg'aydi. Shu bois, bugun tovoqdagi besh osham oshni to'q qoringa yeyish malol kelmaydi. Negaki ongimiz ostida nafaqat taom, balki bizga in'om etilgan barcha noz-ne'matlar qadriga yetish tuyg'usi bor. Bu ayrim hududlarda hatto qadriyat darajasiga chiqqan.

Bu masalaning faqat taom, moddiy bilan bog'liq jihati. Ana endi buni insonning ma'naviy qiyofasidagi ta'siri, uning ruhiy og'riqlari bilan bog'lab tasavvur qiling. Bugun beg'ubor istaklari ijobat bo'lib, to'q-farovon yashayotgan bolalar o'ziga komil ishonch bilan o'sadi. Ishonchi bois, fikrini dadil ayta oladi. Natijada ko'zlagan maqsadiga ham oson erishadi. Darhaqiqat, har jihatdan sog'lom jamiyatni qaror toptirish bolalarning bekamu ko'st o'sishiga bog'liq. O'rganishlar natijasining yaxshilanib borayotgani esa jamiyatimiz izchil taraqqiy etayotganidan dalolat.

### Bolalar kambag'alligi o'zi nima?

— Bolalar kambag'alligining mezonini yurimiz sharoitida bir kishiga to'g'ri keladigan o'rtacha iste'mol xarajatiga qarab belgilanadi. Davlat tomonidan belgilangan ustama me'yordan kam xarajatdagi xo'jaliklarda yashaydigan bolalar kambag'al deb topiladi, — deydi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bosh ilmiy xodimi Baxtiyor Ismoilov. — O'tkazilgan so'rovda jami 16 mingta uy xo'jaligi qamrab olindi. Natijasiga keladigan bo'lsa, 2023-yilda bolalar kambag'alligi 2021-yilga nisbatan qishloqlarda qariyb 10 foizga, shaharlarda 5 foizga qisqargan.

O'tgan yillardagi ko'rsatkichdan sezilarli darajada siljish kuzatilgan. Demak, bolalar kambag'alligini kamaytirish borasidagi amaliy ishlar samara bergan. “O'zbekiston — 2030” strategiyasining birinchi maqsadida yoshlar ta'lim-tarbiyasi va ijtimoiy himoyaga e'tibor qaratilgan. Shuning o'zidayoq mamlakat taraqqiyotida qaysi jihatlarni mezon qilib olganimiz ko'rinadi.

Tadqiqotda shu jihat ham o'rganilgan. Ya'ni Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi BMT Bolalar jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan birgalikda bolalar o'rtasidagi kambag'allik darajasini baholash bilan bir vaqtda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini ham tahlil qildi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ijtimoiy nafaqalar bo'lmasa, mamlakatda bolalar kambag'alligi darajasi 1,6 barobar oshadi. Bundan ko'rinadi, yurtimizda ijtimoiy himoya tizimining samaradorligi bolalar kambag'alligini qisqartirishda muhim omil bo'lgan. Bu haqda biroz keyin to'xtalamiz. Ayni paytda tadqiqot jarayoni, unda qanday jihatlarni hisobga olinganiga e'tibor qaratsak.

### Bolaning begonasi bo'lmaydi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Jahon banki bilan hamkorlikda uy xo'jaliklari budjetini o'rganagan. Ushbu ma'lumot asosida bolalarning kambag'allik darajasi hisoblab chiqilgan. Dastlab 2021-yilda o'tkazilgan so'rovda 10 ming xonadon ishtirok etgan bo'lsa, 2023-yilda 16 ming oila o'rganildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bolalar kambag'alligi darajasi eng past bo'lgan hududlar Navoiy viloyati va Toshkent shahri bo'lsa, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida

har qanday g'ubor urush asorati degan tushuncha qotib qolgan edi.

Afsuski, bugun ham urush balosi bolalar hayotiga soya tashlab turibdi. Kundalik xabarlarida kunlik yemakka zor bolalarning holatini ko'rib, beixtiyor bo'g'zimga achchiq alam va yig'i tiqiladi, bolaning begonasi bo'lmaydi! Va yana afsuski, ularga ko'mak berishga o'jizimiz. Axir butun dunyoda adolat o'rnatish imkonsiz. Ammo yon-atrofimizdagilar, shu yurtning kelajagi bo'lgan bolalariga yordam berishga qodimiz. Mamlakatimizda aynan bolalar, yoshlarga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Buni xalqaro hamjamiyat ham e'tirof etmoqda.

Biz Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda Jahon banki bilan bolalarning monetar kambag'alligini baholash bo'yicha tadqiqot o'tkazdik, — deydi UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari vazifasini bajaruvchi Joffri Jumba. — Tadqiqotda ijobiy natijalar qayd etildi. Albatta, bolalar manfaatini himoya qiluvchi UNICEF tashkiloti bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar olib boryapti. Quvonarlisi, O'zbekistonda aholini manzilli ijtimoiy himoya va moddiy qo'llab-quvvatlash tizimi kuchaytirildi. Ko'makka muhtoj fuqarolarga va yolg'iz keksalarga moddiy yordam ko'rsatish ko'lami kengaytirildi. Buning samarasini mana shu tadqiqot natijasida ham ko'rish mumkin. Lekin tadqiqot natijalari sohada hali muammo va kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Masalan, imtiyozlarning 6 foizi kerakli manzilga yetib bormagan.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda

xo'jaliklari 4 foizga to'g'ri keladi. Aksincha, ijtimoiy yordam oladigan keksa yoshlarni o'rtasida nafaqa nisbatan teng taqsimlanadi. Bu keksa avlod vakillarining ijtimoiy ta'minotida universal yondashuvni aks ettiradi. Sodda qilib aytganda, ijtimoiy himoyaga yo'naltirilgan mablag'lar to'g'ri va adolati taqsimlangan. Zero, tizimdagi ishlar, avvalo, bolalarni kambag'allikdan chiqarishga qaratilgan.

### Ijtimoiy yordamning kambag'allikka ta'siri

Tadqiqotda ijtimoiy himoya tizimining kambag'allik darajasiga ta'siri tahlil qilindi. Unga ko'ra, daromad yetarli bo'lmasdan qat'ida, yanam aniqroq aytganda, kambag'allik chegarasidan past bo'lganda, ijtimoiy yordam ko'rsatilmasa, hisob-kitob jiddiy o'zgaradi. Ya'ni ijtimoiy himoya qisqarsa, kambag'allik darajasi 11 foizdan 20,8 foizgacha, bolalar kambag'alligi 13,7 foizdan 21,8 foizgacha va yo'q'sil pensionerlar ulushi 7,3 foizdan 31,4 foizgacha ko'payadi. Bundan xulosa qilish mumkin, yurtimizda xalqimizga xos bag'rikenglik, saxovat, qiyin ahvoldagi kishilarga yordam qo'lini cho'zish ishlari to'g'ri yo'lga qo'yilgan. Aslida, boshqacha bo'lishi ham mumkin emas. Axir xalqimiz tansiq taomni yolg'iz o'zi yeyishni uyat hisoblaydi. Qo'shninging haqi, deya yon-atrofdagilarga ham ulashadi. Mehr-oqibatning eng go'zal qiyofasi bo'lgan bunday an'analarga bolalar bo'lgan munosabatda yanada yaqqol ko'rinadi. Shu o'rinda bir hayotiy voqeani aytib o'tsam.



ko'rsatish bo'yicha Prezident farmoni qabul qilindi. Mazkur hujjatga asosan, ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etildi. Natijada sohada yangi davr boshlandi.

Yangilanishlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Buning uchun aniq, puxta reja kerak. Mas'ullar tomonidan dastlab o'ndan ortiq davlatning tajribasi o'rganildi. Zarurata qarab, malakali ekspertlar jalb qilindi. Ayni paytda mamlakatimizda mavjud holat chuqur tahlil etildi. Unga ko'ra, soha 30-yil oldingi tizimda

qolib ketgani ayon bo'ldi. Tizim faqat davlat ajratgan pulni tarqatish bilan shug'ullanib kelgan. Oqibatda teskari tendensiya kuzatilgan. Ayrimlar o'zini o'nglab olishga emas, yordam kutib yashashga o'rganib qolgan. Ya'ni mehnatga layoqatli kishilarga ham nafaqa to'lab kelingan. Umuman, soha tubdan yangilanishga muhtoj edi.

Shundan so'ng ijtimoiy himoyaga ajratilgan resurslar aniq egasini topib boradigan tizimga asos solindi. Endilikda har bir oila va inson taqdiriga alohida, professional yondashib ish ko'rilmoqda. Natijada ehtiyojmand fuqarolar jamiyatda o'z o'rini topmoqda. Agentlik tashkil etilgach, joylarda holatga haqqoniy baho berish uchun “mahalla yetiligi” bilan hamkorlikda qayta xatlov o'tkazildi. Uning natijasiga ko'ra, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalarga bo'lindi. Sabab — tezkor yordamga muhtojlar birinchilardan bo'lib ijtimoiy himoyaga olinishi kerak.

Yuqorida UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari vazifasini bajaruvchi J.Jumba janoblari imtiyozlarning 6 foizi kerakli manzilga yetib bormaganini qayd etgan edi. Endilikda yangi tizim sabab ushbu kamchilik ham barham topishiga ishonamiz. Chunki Ijtimoiy himoya milliy agentligining oldiga voyaga yetmagan bolalarni himoya qilish yo'nalishida bir qancha vazifalar qo'yilgan. Masalan, agentlik vasiylik va homiylik tizimini takomillashtiradi. Jumladan, oilaga asoslangan bolalarni parvarish qilishning muqobil shakllarini rivojlantiradi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishni tashkil etish kabi vazifalarni bajaradi. Ko'rinadiki, ijtimoiy himoyaning yangi tizimi kambag'allikni qisqartirishda nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Shu kunlarda mazkur yo'nalishda yana bir yangi qadam tashlandi. Prezidentimiz imzolagan qonun bilan Soliq kodeksiga qo'shimchalar kiritildi. Unga ko'ra, “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturiga kiritilgan tadbirkorlar (bundan Toshkent shahrida



## DOLZARB MAVZU

SALMOQLI QADAMLAR  
natijadorlikni ta'minlaydiAbdurafiq QORJOVOV,  
sharhlovchi

“Yangi O‘zbekiston” gazetasi keng jamoatchilikni tashvishga solayotgan ekologik muammolarni tahlil qilishga alohida e'tibor qaratib keladi. Yashillikni asrasi va ko'paytirish, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash, ekologik xavfsizlik talablariga javob bermaydigan avtotransport vositalaridan chiqarayotgan zararli gazlar va yo'llardagi tirbandliklarni bartaraf etish, jamoat transportini rivojlantirish, “Avtomobilsiz kun” kabi tadbirlarni yo'lga qo'yish borasida ko'tarilgan dolzarb masalalar ana shunday mavzular sirasiga kiradi.

“Muz”lar ko'cha  
boshladi (mi?)

Hamkorlikda hikmat ko'p, birlashgan o'zar deganlaridek, ayni kunga kelib, ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan choralar davlat dasturlarida, hukumat qarorlarida o'z ifodasini topa boshladi.

Sir emas, Toshkent shahrida tirbandlik katta muammoga aylanib qoldi, ayrim ko'chalarda ish kunlari o'rta 7-9, ba'zan 10 ballik tirbandliklar kuzatilyapti, ba'zi ko'chalarga esa 2 karra ko'p yuklama tushyapti. Oqibatda kunning tig'iz paytida manzilga borish uchun 2 barabar ko'p vaqt sarflanmoqda.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi buning sababini poytaxtda avtomobillar soni keskin ko'payib, deyarli 5 millionga yetgani bilan izohlaydi. Shaharda har kuni taxminan 730 mingga mashina harakatlanadi, bundan tashqari, viloyatlardan kelgan avtomobillar hisobiga olinsa, 160-300 mingga yaqin mashina kuniga poytaxtga kirib-chiqadi. Ya'ni Toshkentda har kuni 1 millionga yaqin avtomobil harakatlanadi. Ularning asosiy qismi A1-80 benzinida yuradi. Mashinalar soni ortgani, yo'l harakati to'g'ri tashkil etilmagani sababli tirbandliklar ko'payadi. Tirbandlikda qolgan mashina motori ko'p ishlab, havoga yanada ko'proq zararli moddalar chiqaradi...

Shu bois, davlatimiz rahbarining shu yil 21-fevraldagi “O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili”ga amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida”gi farmonida mazkur muammolarni bartaraf etish yo'llari belgilab berildi. Unga binoan, 1-martdan boshlab Toshkent shahrida yuk tashish uchun mo'ljallangan, ruxsat etilgan to'la vazni 10 tonnadan yuqori bo'lgan N2, N3 va O4 toifalariga kiruvchi avtotransport vositalarining harakati tig'iz vaqt oraliqlarida taqiqlanadigan bo'ldi. N2 toifasiga — to'la vazni 3,5 tonnadan yuqori, lekin 12 tonnadan ko'p bo'lmagan, N3 toifasiga — to'la vazni 12 tonnadan yuqori yuklarni tashishga mo'ljallangan transport vositalari, O4 toifasiga — to'la vazni 10 tonnadan oshadigan tirkamalar kiradi.

Davlat dasturida 2030-yilga qadar Toshkent va Nukus shaharlari, viloyatlar markazlarida “EURO-5” va undan yuqori standartlarga muvofiq bo'lmagan avtomashinalardan foydalanish bosqichma-bosqich cheklanishi ko'zda tutilgan.

Ma'lumki, Oliy Majlis Spikeri o'rinbosari va deputatlar tomonidan avtomobillarni hashamatga aylantirish taklif etilib, ularga xizmat ko'rsatish, raqam olish narxlarini keskin oshirish ilgari surilgan edi. Bunga misol tariqasida bir qator davlatlarda qo'llanilayotgan tajribalar keltiriladi.

Xususan, Xitoyda JST talablari asosida avtomobildan foydalanish bilan bog'liq xizmatlar juda qimmat turadi. Bundan tashqari, Pekinda avtomobillarga davlat raqami olish jarayoni murakkab qilib qo'yilgan. Ya'ni raqamni sotib olish uchun lotereyada ishtirok etish yoki yillar davomida kutishga to'g'ri keladi. Yoxud aqsdonda qatnashib, 100 ming yuan va undan yuqori (13,8 ming dollar) to'lovni amalga oshirish kerak. Ammo buning uchun ham talablar bor: Pekinda so'nggi besh yil davomida yashash, soliq to'lash, ijtimoiy sug'urtaga ega bo'lish kerak va hokazo. Shahar ma'muriyati 2023-yilda 100 mingga davlat raqamini chiqarishga qaror qilgan bo'lsa, shundan 70 mingga elektromobillar uchun berilgan. Elektr va gibrid transport vositalari uchun “yashil” davlat raqamlarini bepul olish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi matbuot xizmatining xabar berishicha, 1-apreldan boshlab yurimida ham ekologik xavfsizlikni ta'minlash, yashil energetikaning qo'llab-quvvatlash, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlardan kelib chiqib, elektromobillarni ro'yxatdan o'tkazish narxiga imtiyozlar berilyapti. Ya'ni endilikda elektromobillar,

mototransport va avtotransport vositalari tirkamalarini ro'yxatdan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 barabari miqdorida — 510 ming so'm to'lov belgilanmoqda.

Hisob-kitoblarga qaraganda, 2023-yilning aprel-dekabr oylarida 1 million 340 ming



dona avtomobil oldi-sotdisi qayd etilgan va bu budjetga 45,5 milliard so'mdan ziyod daromad keltirgan. Xuddi shu sur'at saqlanib qolsa, 2024-yilning qolgan oylarida daromad 3 trillion so'mdan oshadi.

Endi o'tgan hafta ko'pchilikning diqqat markazida bo'lgan “Avtomobilsiz kun” tadbirining qanday o'tgani haqida. Davlat dasturida keng jamoatchilik vakillarining ekologiyaga avtomobillardan chiqindi gazlar ta'sirini kamaytirish maqsadida Toshkent shahrida oyming bir ish kunida transport harakatlanishini qisqartirishga qaratilgan “Avtomobilsiz kun” tadbirini amalga oshirish to'g'risidagi taklifi ma'qullanib, binosi poytaxtda joylashgan barcha respublika va hududiy ijro etuvchi organlarning rahbarlari va xodimlari jamoat transportida ish joyiga kelishi orqali aholiga namuna ko'rsatishiga urg'u berilgan. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi hamda Transport vazirligi va Toshkent shahar hokimligi uning to'liq, sifatli, so'zsiz bajarilishi uchun mas'ul etib belgilangan.

O'tgan hafta juma kuni mazkur aksiyaning dastlabki tadbiri o'tkazildi. Ko'plab vazirlik va idoralar rahbarlari xizmat avtomobillarini qantari qo'yib, ishga jamoat transportida, velosipedda yoki piyoda bordi.

— Toshkent shahrida rejalashtirilgan tadbir doirasida davlat idoralarning rahbarlari va xodimlari jamoat transportidan foydalanishi orqali oyda bir kun davomida shaharda yuradigan avtotransport vositalari soni o'rta 200 ming, 22-25 foizga kamayadi, — dedi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va

Hududlardagi “yashil”  
o'zgarishlar

Joriy yil 30-mart kuni Vazirlar Mahkamasining “Atmosfera havosiga transport vositalarining salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida” gi qarori e'lon qilindi. Unga muvofiq, 2024-yil 1-iyundan boshlab barcha toifalardagi avtomototransport vositalaridan ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarining atmosfera havosiga zararli ta'siri bo'yicha yo'l qo'yiladigan normativlarga mosligini nazorat qilish bo'yicha ta'biq etiladi, — deydi huquqshunos-ekspert Shokir Toshqulov. — Hududlar atmosfera havosi bilan bog'liq real ekologik holatdan kelib chiqib, “toza”, “o'rta” va “zararli” ekologik zonalar ajratib boriladi. Transport vositalariga ularning diagnostikasiga qarab, “yashil”, “sariq” va “qizil” stikerlar beriladi. Ekologik toifasi hudud holatiga muvofiq bo'lmagan avtomobillarga nisbatan kompensatsiya to'lovlari joriy etiladi yoxud ulardan tegishli ekologik hududlarda foydalanish cheklanadi yoki taqiqlanadi. Undirilgan jarima to'lovlari esa ekologik holatni yaxshilashga yo'naltiriladi.

“Ekologik transport” tizimi birinchi bosqichda (2024-2026-yillar) Toshkent shahrida, ikkinchi bosqichda (2026-2028-yillar) Nukus shahri va viloyatlar markazlarida hamda zaruratga ko'ra, alohida ekologik hududlarda (sayohat markazi, tabiat qo'riqxonasida, sog'lomlashtirish hamda dam olish maskanlari va boshqalar), uchinchi bosqichda (2028-2030-yillar) boshqa barcha joylarda ta'biq etiladi.

Dastlabki bosqichda elektromobil va elektromototransport hamda ishlab chiqarilganiga uch yildan oshmagani boshqa turdagi transport vositalariga ularning egalari tomonidan onlayn axborot tizimlari orqali yuborilgan murojaatlar asosida real vaqt rejimida “yashil” ekologik toifasiga mansub stikerlar mazkur xizmatlar uchun alohida to'lov undirilmasdan, diagnostik tekshiruv beriladi va pochta orqali yuboriladi.

Barcha avtotransport vositalariga stikerlar 2027-yil 1-yanvarga qadar Toshkent shahrida, 2029-yil 1-yanvargacha Nukus shahri va viloyatlar markazlarida hamda alohida ekologik zonalarda, 2031-yil 1-yanvarga qadar boshqa barcha hududlarda berilishi rejalashtirilmogda.

Ekologik stikerlar uchun hech qancha to'lov talab qilinmaydi, bepul beriladi. Hududlardagi ekologik zonalar chegaralarini belgilash hamda ularni o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari tomonidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi taqdim etilgan amalga oshiriladi.

Qarorda aholiga “zararli” toifadagi transport vositalarini “toza” toifadagi transport vositalariga, ya'ni eskilarini yangilariga almashtirish uchun subsidiya berish tizimi joriy etilishi ham ko'zda tutilgan. Iqtisodiyot va molliya vazirligi bir oy muddatda mazkur tizimni joriy etish hamda atmosfera havosini muhofaza qilish va ifloslanishning oldini olishga qaratilgan zamonaviy yondashuvga asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritildi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Toshkent shahrida o'zida idoralar rahbarlari va xodimlari oyda bir kun davomida jamoat transportidan foydalanishi orqali shaharda avtomobillarining atmosfera zarari tashlamalari 22-25 foiz, o'rta 580 tonnaga qisqarishini, tirbandliklar kamayishiga erishilishini qayd etgan edi. Tabiiyki, “Ekologik transport” tizimining kelgusida butun mamlakat bo'yab ta'biq etilishi hududlar “yashil”ligini ta'minlashga, har bir kishining toza havodan nafas olib, sog'lom va uzoq umr ko'rish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining qarori bilan joriy etilayotgan “Ekologik transport” tizimi shu yil 1-iyundan boshlab barcha toifadagi transport vositalaridan ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarining atmosfera zararli ta'siri bo'yicha yo'l qo'yiladigan normativlarga mosligini nazorat qilish bo'yicha ta'biq etiladi, — deydi huquqshunos-ekspert Shokir Toshqulov. — Hududlar atmosfera havosi bilan bog'liq real ekologik holatdan kelib chiqib, “toza”, “o'rta” va “zararli” ekologik zonalar ajratib boriladi. Transport vositalariga ularning diagnostikasiga qarab, “yashil”, “sariq” va “qizil” stikerlar beriladi. Ekologik toifasi hudud holatiga muvofiq bo'lmagan avtomobillarga nisbatan kompensatsiya to'lovlari joriy etiladi yoxud ulardan tegishli ekologik hududlarda foydalanish cheklanadi yoki taqiqlanadi. Undirilgan jarima to'lovlari esa ekologik holatni yaxshilashga yo'naltiriladi.

“Ekologik transport” tizimi birinchi bosqichda (2024-2026-yillar) Toshkent shahrida, ikkinchi bosqichda (2026-2028-yillar) Nukus shahri va viloyatlar markazlarida hamda zaruratga ko'ra, alohida ekologik hududlarda (sayohat markazi, tabiat qo'riqxonasida, sog'lomlashtirish hamda dam olish maskanlari va boshqalar), uchinchi bosqichda (2028-2030-yillar) boshqa barcha joylarda ta'biq etiladi.

Dastlabki bosqichda elektromobil va elektromototransport hamda ishlab chiqarilganiga uch yildan oshmagani boshqa turdagi transport vositalariga ularning egalari tomonidan onlayn axborot tizimlari orqali yuborilgan murojaatlar asosida real vaqt rejimida “yashil” ekologik toifasiga mansub stikerlar mazkur xizmatlar uchun alohida to'lov undirilmasdan, diagnostik tekshiruv beriladi va pochta orqali yuboriladi.

Barcha avtotransport vositalariga stikerlar 2027-yil 1-yanvarga qadar Toshkent shahrida, 2029-yil 1-yanvargacha Nukus shahri va viloyatlar markazlarida hamda alohida ekologik zonalarda, 2031-yil 1-yanvarga qadar boshqa barcha hududlarda berilishi rejalashtirilmogda.

Ekologik stikerlar uchun hech qancha to'lov talab qilinmaydi, bepul beriladi. Hududlardagi ekologik zonalar chegaralarini belgilash hamda ularni o'zgartirish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar va viloyatlar hokimliklari tomonidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi taqdim etilgan amalga oshiriladi.

Qarorda aholiga “zararli” toifadagi transport vositalarini “toza” toifadagi transport vositalariga, ya'ni eskilarini yangilariga almashtirish uchun subsidiya berish tizimi joriy etilishi ham ko'zda tutilgan. Iqtisodiyot va molliya vazirligi bir oy muddatda mazkur tizimni joriy etish hamda atmosfera havosini muhofaza qilish va ifloslanishning oldini olishga qaratilgan zamonaviy yondashuvga asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritildi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Toshkent shahrida o'zida idoralar rahbarlari va xodimlari oyda bir kun davomida jamoat transportidan foydalanishi orqali shaharda avtomobillarining atmosfera zarari tashlamalari 22-25 foiz, o'rta 580 tonnaga qisqarishini, tirbandliklar kamayishiga erishilishini qayd etgan edi. Tabiiyki, “Ekologik transport” tizimining kelgusida butun mamlakat bo'yab ta'biq etilishi hududlar “yashil”ligini ta'minlashga, har bir kishining toza havodan nafas olib, sog'lom va uzoq umr ko'rish imkoniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Xususan, Amudaryo tumanidagi Oq oltin ovulida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar faoli Mohira Yoqubova hududdagi ishiz ayollar hayot tarzining o'zgarishida jonbozlik ko'rsatmoqda.

Ushbu mahallada istiqomat qiluvchi yosh oila bekasi, ikki farzandning onasi Muyassar Saparboyeva Mohira opaning yordami bilan tikuvchilikni yo'lga qo'ydi.

— Muyassarning bichish-tikishga uquvi borligini bilardim. O'tgan yili unga kredit asosida ko'p funksiyali tikuv mashinalari olishiga yordam berdik, — deydi Mohira Yoqubova. — Shuningdek, Muyassar hududimizdagi “Tamara Textil” korxonasida o'qib, kasb-hunar o'rgandi, tikuvchilik bo'yicha bilimni yanada boyitdi. Ayni paytda u uyda farzandlari parvarishi hamda uy yumushlari bilan birga tikuvchilik orqasidan yaxshilab daromad topmoqda.

Bular orolbo'yilik zamonadoshlarimiz tajribasidan bir shingil. Mayli, u nogiron, mayli, u sog' bo'lsin, “Qalovini topsang, qor yog'ar” deganlaridek, har kim imkonini topib, hayotda o'z orzu-maqsadiga yetishishi mumkin ekan. Eng muhimi, barchaga teng imkoniyat yaratilishi tufayli aholi bandligi oshib, turmushi farovon bo'lmoqda.

Minatadin QUTLIMURATOV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

## Inson qadri uchun

## ISHLAYMAN DEGANGA IMKON KO'P

Amudaryo tumanidagi Chordara mahallasida yashovchi Shokir Nurullayev 2014-yilda baxtsiz hodisa tufayli bir oyog'idan ayrilgan. Ikki farzandning otasi. Oilasini boqish, farzandlarini hech kimdan kam qilmay tarbiyalash tashvishi bilan yashaydi. Shuning uchun kredit evaziga elektromototsikl sotib olib, yuk tashish xizmati bilan shug'ullana boshladi.

Yana bir hamiyurimiz Ravshanbek Matmuratovning taqdiri ham Shokir Nurullayevnikiga o'xshash. Lekin u o'zini taqdir hukmiga tashlab qo'yilmagan.

— O'zimni aslo nogirondek his qilmayman. Tadbirkorlik qilib, yaxshigina daromad topyapman. Muhimi, halol mehnatim bilan ro'zg'or tebratyapman, — deydi Ravshanbek Matmuratov.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lishiga qaramay, hayotda sog'lom insonlar singari oldinga intilayotgan, o'z oilasini, otanasini va farzandlarini moddiy ta'minlashga

harakat qilayotgan, bugungi kuniga shukrona keltirib, yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan, o'zgalarga namuna bo'layotgan bunday yurtdoshlarimiz ko'p.

Oramizda ana shunday imkoniyati cheklangan bo'lishiga qaramasdan, o'zini aslo ijtimoiy himoyaga muhtoj deb his etmaydigan, hayotni sevuvchi, har bir kuniga shukrona qiluvchi insonlarni ko'rib, baxtiyor hayotga muhabbatimizni o'rnatish turgan gap.

Qonliko'1 tumanidagi “Navro'z” ovul fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Baxtiyor Boynazarovning asli kasbi o'qituvchi. Maktabda

10-yil bolalarga dars berdi. Taqdir ekan, kasal bo'lib, to'shakka mixlanib qoldi. Biroq tushkunlikka tushmadi. Intiluvchan Baxtiyor asta-sekin oyoqqa tura boshladi.

— 2020-yilda insult bo'lib qoldim. Bir yil o'rmandan tura olmadim. Bir qo'l, bir oyog'im ishlamay qoldi. Davolanishlar tufayli asta-sekin yura boshladim, — deydi Baxtiyor Boynazarov. — Oldinlari temirdan har xil buyumlar yasardim. Uyda bekor o'tirishni xohlamadim. Bir qo'lda payvand qilishni o'rgandim. Harakat qilganim sari o'zimni yaxshi sezayapman. Hozir ikki ukam bilan birga temirchilik ustaxonasi tashkil etganmiz.

Baxtiyor Boynazarov birinchi guruh nogironi edi. Tinimsiz harakati, oldinga intilishi, hayotni sevishi uni oyoqqa turg'azdi.

Bugun “mahalla yetiligi” tomonidan joylarda aholining band bo'lmagan qatlamini har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.



Hozir o'n nafar yoshdan biri axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassis bo'lishini aytadi. Boisi, mazkur soha bugun jadal rivojlanmoqda va buning ortidan mutaxassislarga talab ortib bormoqda. Oddiy aytganda, taraqqiy etgan texnologiya kelajak kasblariga yo'l ochib beryapti.

Kundalik ehtiyojimiz uchun foydalanayotgan elektron qurilmalarga bir e'tibor bering. Ulardagi imkoniyatlar nafaqat oy, balki hafta, kun sayin yangilanib,

Mamlakatimizda bu yo'nalishdagi ishtar ko'lami jadal kengaymoqda. Axborot texnologiyalari sohasida kadrlar tayyorlashda davlat oliy o'quv yurtlari qatorida xususiy

kerak. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning hududiy filiallarida bugungi kunda 934 nafar professor-o'qituvchi mehnat qilmoqda.

O'tgan yili universitetimiz va uning hududiy filiallari respublika oliy ta'lim muassasalari milliy reytingida 13-o'rinni, texnika yo'nalishidagi o'quv dargohlari orasida 7-o'rinni, professor-o'qituvchilarning ilmiy tadqiqot faoliyati natijalari asosida olingan

o'quv muassasamiz 4 yulduzli universitet maqomiga ega bo'ldi. Bunda universitet ta'lim, bitiruvchilarning ishga joylashishi, masofaviy ta'lim va inklyuzivlik mezonlari bo'yicha a'lo darajada deb baholangan.

Shu bilan birga, QS agentligi sarhisoblarida oliy o'quv yurtimiz o'tgan yili o'tkazilgan "QS Asia university rankings" nominatsiyasi bo'yicha ilk bor 2024-yilgi reytingda Osiyo universitetlari orasida 651-700-o'rinni, Markaziy Osiyo oliy o'quv dargohlari ichida



# ILM-FAN ODIMLARI

## TEXNOLOGIYA BUGUNNIKI, MUTAXASSIS KELAJAKNIKI



**Baxtiyor MAHKAMOV,**  
iqtisodiyot fanlari  
doktori, professor

takomillashib borayotir. Bunday texnologiyalar axborotlashgan jamiyat negizini tashkil etib, kishilarning og'irini yengil, uzog'ini yaqin qilmoqda. Inson esa yangilikka o'ch. Shu omilning o'zini inobatga olib ham aytish mumkin, axborot texnologiyalari mutaxassislari — kelajak egalari.

Jahon iqtisodiy forumi (WEF) hisob-kitoblariga ko'ra, 2025-yilga kelib, odamlar va mashinalar o'rtasidagi mehnat taqsimoti 85 million ish o'rni yo'qotilishiga olib kelishi, shu bilan birga, odamlar, mashinalar va algoritmlar o'rtasidagi yangi mehnat taqsimotiga moslashgan 97 million yangi kasb paydo bo'lishi mumkin. Bundan ko'rinadiki, IT mutaxassislari tayyorlashga e'tibor qaratgan davlatning oshig'i olchi, fuqarolari ishli, daromadli bo'ladi.

sektorining faolligi ham sezilarli darajada oshdi. Natijada kompyuter ustasi, dizayner, dasturchi, loyihachi, veb-administrator, blokcheyn muhandisi, menejer, blogger singari o'nlab yangi kasblar paydo bo'ldi va hozir ular millionlab odamlar mehnat qilmoqda. IT sohaga qiziquvchi mutaxassislar mazkur yo'nalishdagi ayrim kasblarni o'rganish uchun qancha vaqt ketishini ham hisoblab chiqqan. Xususan, bundan bir muncha muddat oldin, aniqrog'i, pandemiyadan so'ng "ManpowerGroup" kompaniyasi tomonidan eng ko'p talab qilinayotgan kasblarning TOP-5 talik ro'yxatida IT va Data (ma'lumotlar) soha mutaxassislari yetakchilik qilayotgani ma'lum bo'lgandi. Keyingi o'rinlarda savdo va marketing, operatsiyalar va logistika, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hamda mijozlar bilan ishlash, front-ofis bo'yicha mutaxassislilar keltirilgan. Shu bilan birga, tadqiqot xulosasida global miqyosda "iqtidorlar tanqisligi" (talent shortage) ortgani ham aytilgan. Ya'ni so'rovnomada ishtirok etgan ish beruvchilarning 75 foizi bo'sh ish o'rinlarini to'ldirishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini ma'lum qilgan.

Shu nuqtayi nazardan, endilikda mutaxassislari tayyorlovchi oliy o'quv yurtlari oldiga qo'yilayotgan talab ham yuqori bo'lib boraveradi. Ular uchun bilimli va malakali kadr tayyorlashdan tashqari, o'quv jarayonini zamonaviy mehnat bozori chaqiriqlariga munosib yangilab borish ham asosiy masalaga aylanadi.

**Bu borada qanchalik faolimiz?**

O'quv dargohimiz aynan shu sohaga ixtisoslashtirilgan. Demak, bu borada mas'uliyat hissi bizda yanada yuqori bo'lishi



mablag' ko'rsatkichi bo'yicha 3-o'rinni egalladi. Xususan, universitet va uning hududiy filiallarida 104 ta ilmiy tadqiqot ishi bajarilgan bo'lib, ularni moliylashtirish hajmi 18 milliard 773 million so'mni tashkil etdi. Davlat dasturlari doirasida bajarilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining 2 tasi fundamental, 4 tasi amaliy, 8 tasi innovation, 2 tasi qo'shma xalqaro loyiha hisoblanadi, qolganini xo'jalik shartnomalari tashkil etadi. Shuningdek, bir yil mobaynida umumiy qiymati 1 milliard 375 million so'mlik 10 dan ortiq dasturiy mahsulot va xizmatlar orqali tijoratlashtirish ishlari amalga oshirilgan.

2023-yilda QS xalqaro reyting tashkiloti tomonidan "QS Stars" nominatsiyasi bo'yicha o'tkazilgan audit tekshiruviga ko'ra,

38-o'rinni va O'zbekiston OTMlari orasida 6-o'rinni egalladi.

Qolaversa, "UI Green Metric World University Ranking" xalqaro reytingida TOP-1000 talik universitetlar ro'yxatidan joy oldi.

TATU va hududiy filiallari 57 davlatning 107 ta universiteti, 7 ta ilmiy-tadqiqot markazi, 20 ta tashkilot va kompaniyasi bilan jami 143 ta o'zaro hamkorlik shartnomasi, kelishuv va memorandum imzolangan. 2019-2023-yillarda Yevropa Itifoqining "Erasmus+" dasturi doirasida umumiy qiymati 2,3 million yevrolik uchta loyiha ilk marta grantxolder sifatida amalga oshirildi. Hozirgi kunda "Erasmus+" dasturi doirasida umumiy qiymati 1,82 million yevroga teng 9 ta loyiha ro'yobga chiqarilmoqda.

Janubiy Koreyaning KOICA tashkiloti ko'magida universitet va uning filialida 3 million dollar qiymatidagi "Integrallashgan axborot tizimini yaratish" investitsion loyihasi muvaffaqiyatli yakunlangan bo'lsa, 2022-2027-yillarda jami 5 million dollarlik "Global IT biznes ta'lim dasturi hamda FabLab tashkil etish" grant loyihasi bajariladi.

Bundan tashqari, Yaponiyaning yetakchi IT kompaniyalaridan biri — "CAL.CO.Ltd" bilan talabalar uchun malaka oshirish va karyeralarini davom ettirish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi. Bular, tabiiyki, ilm vakillarini yana mazzalarga ruhlantirmoqda. O'tgan yilning dekabr oyida Prezidentimiz tomonidan ta'sis etilgan "President Tech Award" talovida qatnashgan 5 ta jamoa startap loyihalari bilan umumiy qiymati 380 ming dollarlik mablag'ni qo'lga kiritgani, oxirgi ikki yilda bitiruvchilarning 200 nafari o'z tadbirkorligini (o'z mutaxassisligi va boshqa yo'nalishlarda) yo'lga qo'ygani shundan dalolat beradi. Hozir xorijning mashhur kompaniyalarida faoliyat juyitayotgan bitiruvchilarning ham bor.

Xususan, ular AQSHning Google, Amazon, Analog Devices, EPAM, Buyuk Britaniyaning Zenith Ai, Janubiy Koreyaning SMARTC&S.co.kr va CenterPrime, Shvetsiyaning Zuccotech, Niderlandiyaning Booking.com singari dunyoga mashhur kompaniyalarida mehnat qilyapti.

**Sharoitga yarasha harakat bo'lishi kerak**

Joriy yil 22-fevralda Prezidentimiz IT xizmatlar infratuzilmasi va eksportini rivojlantirishga oid takliflar taqdimoti bilan

tanishdi. E'tiborga molik jihati, bu haqda o'tgan yilning dekabr oyida bo'lgan videoselektor yig'ilishida topshiriq berilgan edi. Shuning o'ziyoq O'zbekistonda mazkur sohaga e'tibor muntazamlik kasb etayotganini anglatadi va davr talabi. Negaki, yuqorida aytganimizdek, axborot texnologiyalarida kelajak aks etmoqda. Taraqqiyot shunga monand kechmoqda.

Taqdimotda hozir IT-park rezidentlari soni 1700 taga yetib, 26 ming xodim faoliyat ko'rsatayotgani, "O'zbekiston — 2030" strategiyasida rezidentlar sonini 10 barobar oshirib, ulardagi ish o'rinlarini 100 mingtaga yetkazish, sohada eksport hajmini 5 milliard dollarga olib chiqish belgilangani alohida ta'kidlandi. Shu maqsadda hududlarga IT eksportchi tashkilotlarni keng jalb qilishga qaratilgan "Zero Risk" dasturini qo'llash taklif etildi. Bu dasturda ishtirok etuvchi korxonalar IT-park tavsifanomasini asosida bo'sh turgan davlat binolari 1 yilgacha muddatga tekin foydalanishga berilishi aytiladi.

Mahalliy IT kompaniyalarni xalqaro miqyosga olib chiqish bo'yicha "Local to Global" loyihasi amalga oshirilib, ularning jahon bozoriga chiqishi, xalqaro ko'rgazmalarda qatnashishi, xorijiy ekspertlarni taklif etishda xarajatlarining 50 foizgacha qismi qoplab beriladi.

Endi maqola avvalidagi fikrga qaytsak: bugun yoshlarning aksariyati axborot texnologiyalari sohasida ishlashni xohlayapti. Sababi, ushbu kasb egalari talab ham, ular topadigan daromad ham yuqori. Imkoniyatlari keng. Makon va masofa tanlamaydi. Unda vaqtdan unumli foydalanish imkoni bor. Dunyo bozorida esa aql mahsulotlari eksporti hajmi tobora ortib bormoqda. Bugun IT iste'dodlari bir yujga jamlayapti. Innovatsiyalarni joriy etish uchun ularga imkoniyat beryapti. Soha real daromad manbaiga aylanganmoqda. Shunday ekan, nima uchun undan samarali foydalanmaslik kerak?!

O'zbekistonning bu borada imkoniyati katta. Chunki bizda yoshlar soni juda ko'p. 2000-yillarda O'zbekistonda yuzga yaqin IT mutaxassis bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda 50 mingdan oshgani, 2030-yilga borib, ular sonini bir millonga yetkazish bo'yicha keng ko'lami vazifalar qo'yilgani harakatlarni amaliyotga ko'chirishga kuchli turkati beradi.

## Tashabbus

# MAKTAB QO'SHIMCHA DAROMAD TOPMOQDA

## O'quvchilarni bilim olishga ruhlantirishda o'ziga xos yondashuv



biriga 10 tupdan tarqatishdi. Aytishdiki, bu bepul sovg'a. Faqat hovlimizga ekishimiz kerak ekan.

— Ey, baraka topishsin. Juda soz, unda belkurakni olib kel. Bularni vaqtida ekish kerak. Hozir hamal. Bu oyda yerga suqilgan har novda amal olmay qolmaydi. Bir oz kechikib eksang, foydasiz bo'ladi. Ayni damda zamin uyg'onomoqda. Ko'p qatori biz ham yerga daraxt ekaylik.

Bobo o'zi bosh bo'lib bo'sh yotgan joylardan chuqur kovlab, nihollarni o'tqaza boshladi. Shu jarayonda keksa hamroh yosh o'spiringa daraxt ekish sirlarini o'rgatib, har bir ekilgan nihol kelgusida inson uchun, atrof-muhit uchun qanchalik katta foyda keltirishi haqida so'zlab berdi. Shuningdek, daraxtlarni asrash lozimligi, buni ko'klatib, hosilga kiritish katta savob ekanini uqtirdi. Mevali ko'chatlarni tomorqaga ekib bo'lishgach, manzaralisini ko'chaga olib chiqishdi. Yo'l chetida bo'sh turgan yerga ekishni boshlasharkan, Zarifjon bobosini savolga tutdi.

— Bu yer bizga qarashli emas-ku, nega ko'cha chetiga ekayapmiz?

Nabirasining bu savoliga nima deb javob berishni bir zum o'ylab olgan bobo dedi:

— Bir kunlik vaqtning qanchasi uyda o'tadi, shuni bilasanmi?

— Maktabga boraman, undan so'ng mashg'ulotda bo'laman. Kechga tomon stadionda futbol o'ynamaymi... Faqat tunda uyda bo'larkanman.

— Ana, ko'rdingmi? Demak, birgina yashaydigan hovlimiz emas, butun mahalla, shahar va mamlakat barchamizniki ekan. Shunday bo'lgach, uni asrash, yashil hududga aylantirish, havosini musaffo qilish ham hammamizning ishimiz.

**Har bir o'quvchiga o'n tup ko'chat**

Izlagan imkon topar deganlaridek, Koson tumanidagi 15-maktab jamoasi iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirishning o'ziga xos yo'lini topgan. Ta'lim maskani jamoasi faqatgina maosh bilan cheklanib qolmagan. Direktor boshchiligida tashabbus ko'rsatib, maktabning kattagina bo'sh turgan yeridan unumli foydalanishni maqsad qilib, harakat boshlanganiga ancha yillar bo'ldi. Bugun uning natijasida yaxshigina daromad topish bilan birga, yurtimizni yashil hududga aylantirishga ham hissa qo'shishmoqda.

Dastlab ko'chat yetishtirishga bel bog'laganimizda maskanimizda bir gektardan ortiq bo'sh yer bor edi, — deydi maktab direktori Anvar Qosimov. — Buning ustiga yonginamizda suv oqadi. Shunday imkoniyatdan foydalanmaslik noto'g'ri bo'ladi, degan fikr bilan ishni boshlab yubordik. Avval bog'bonlar bilan maslahatlashib, bu yerga qaysi nihol mosligiyu qaysi chidamli ekanini aniqlab oldik. Qolaversa, xo'jalik mudirimiz bu sohani juda yaxshi bildi. Xonadonida ham nihol yetishtirib, katta tajriba to'plagan. U kishining malakasi biz uchun juda asqatdi. Shundan so'ng ishni boshlab yubordik. Lekin o'sha paytda bunchalik yaxshi natijaga erishib, ko'p daromad topishni o'ylamaganmiz. Ko'chatlar tayyor bo'lib, tevarak-atrofdagi mahallalarga, maktablarga sotishni boshlagach, unga ehtiyoj yuqorigilini angladik. Shundan so'ng ishga yanada jiddiy kirishdik.

Boshida ikki sotixga ekan bo'lsak, keyingi

yildan ko'proq joydan foydalandik. Shunga yarasha samara bera boshladi. Har mavsumda sotilgan ko'chatlardan o'rtacha 15 million so'mga yaqin daromad olamiz. Uni o'quv yili davomida ishchi-xizmatchilar, faol o'qituvchilar va iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirishga sarflaymiz. Bu mavsumda esa jamoamiz bilan birga tashabbus ko'rsatib, yettinchii sinfdan o'n birinchii sinf o'quvchilarigacha, o'qituvchilarga ishchi-xizmatchilarimizning har biriga o'n donadon, jami ikki mingdan ziyod mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini bepul tarqatdik. Shu qatorida "Obod xonadon — obod ko'cha — obod mahalla" loyihasi doirasida ish olib borilayotgan hududlarga ham bepul tarzda yetkazib berdik.

Ayni paytda maktab hovlisiga kirgan kishining ko'zi quvnaydi. Bir qarich ham bo'sh yer qolmagan. Atrof yashillikka burkanib, bir tomoni gulzor, bir tomonida katta bog' yaratilib, kichik o'rmon hosil qilingan. O'quv binosi qurilganiga qariyb yarim asr bo'lsa-da, yangi bunyod etilgan kabi ko'rinibdi. Buning siri ham aynan qo'shimcha daromad ekan. Ya'ni 2016-yilda mukammal ta'mirlangan binoni shu holatda saqlash uchun ishlab topilayotgan qo'shimcha mablag' evaziga har yili joriy ta'mir qilinadi. Bu esa mehnat ortidan kelayotgan sarmoya behuda sarflanmayotganidan dalolat beradi.

**Mavsum davomida o'ttiz million so'm**

Koson tumani Sherbek qishlog'ida joylashgan 77-umumta'lim maktabi ham

qo'shimcha mablag' ishlab topishda namunali ta'lim maskanlaridan biri hisoblanadi. Bu yerda ham, asosan, ko'chat yetishtiriladi. Maktab rahbarining ta'kidlashicha, aynan shu yo'nalishda ish boshlanganiga o'n yildan oshibdi. Shu vaqtga qadar necha minglab manzarali daraxt nihollari buyurtma asosida xaridorlarga sotib kelinmoqda. Joriy yilda ham o'n mingga yaqin ko'chatni savdoga chiqarish boshlangan.

O'tgan yili yigirma besh million so'mdan ortiqroq daromad topgandik, — deydi maktab direktori Sanjar Eshonqulov. — Bu yil esa ko'proqni mo'ljal qilib turibmiz. Hozirga qadar yetti million so'mlikka yaqin nihol sotildi. Jami bo'lib o'ttiz milliondan oshsa kerak. Asosan, manzarali daraxt ko'chatlari yetishtirishni yo'lga qo'yganmiz. Bundan tashqari, mahallamizning ham asosiy "drayver"i ko'chatchilik. Kattakichik barcha shu ish bilan band. Biz xaridor izlab yurmaymiz. Joyning o'zida sotib yuboramiz. Maktabimizning ikki gektardan ziyod yer maydoni mavjud. Shuning yarmida manzarali daraxt nihollari yetishtiriladi. Endi mevali daraxt ko'chatlari yetishtirishni ham rejalashtirmoqdami.

Maktab rahbarining so'zlariga ko'ra, olinayotgan daromad, asosan, ta'lim sifatini oshirishga yo'naltiriladi. Jumladan, o'quvchilar biror tanlov yoki fan olimpiadasiga borishi kerak bo'lsa, shu mablag' hisobidan olib borilarkan. Yaxshi natijaga erishayotgan o'qituvchilarga ham moddiy ko'mak berib kelinmoqda. Bundan tashqari, a'lochii o'quvchilar rag'batlantirilib, ota-onalari oldida e'tirof etilishi bolalarning ilm olishga qiziqishini yanada oshirishga turkati bo'lmoqda.

Darhaqiqat, har ikki maktabda ta'lim sifatini oshirish bilan birga hududdagi har bir qarich yerdan unumli foydalanishga jiddiy e'tibor qaratilgan. Natijada daromad ortidan yoshlarni ilm olishga ruhlantirish hamda atrof-muhitni yashil makonga aylantirishga katta hissa qo'shilmokda. Bu esa ko'plab ta'lim muassasalariga o'rnak bo'lishi shubhasiz.

**Akbar RAHMONOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Tafakkur charxi

# Ibrohim G'afurov va kitob

**Ashurali JO'RAYEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist**

**Ustoz Ibrohim G'afurovni birinchi marta G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotining uzun yo'lida ko'rganman. Uning qo'lida kitob bor edi. Uzun bo'lyi, qop-qora sochlariga oq oralay boshlagan. Qomatini adl tutib, xayolga botib yurib kelayotgan, o'zgin edi. Hayratlanib, yo'lakning chetrog'iga o'tdim va darhol salom berdim. U alik olib, boshlarini qimirlatib, yo'lida davom etdi. Besh-o'n qadamlar yurib, bir eshikni ochib kirib ketdi. Bir to'xtab, men tomonga qarab qo'ygani esimda. Sababini bilmayman. O'shanda Ibrohim G'afurovning rasmlarini bir-ikki bor ko'rganim bois, mashhur shoir Usmon Nosirga o'xshatgan edim...**

O'sha lahzalarda mendan baxtiyor odam yo'q edi. Yo'lakdan go'yo men artarib yurgan nur o'tib ketgandek bo'ldi. Chunki Ibrohim G'afurov bilan "Joziba" kitobi orqali maktabning yuqori sinfida o'qib yurganimda g'oyibona tanishgan edim. Bu kitobni Karmanadagi kitob do'konidan sotib olgandim. Do'kon menga juda qadrdon edi. Hatto uni tez-tez tushlarimda ko'rib turardim. Tushlarimda dasta-dasta, uyum-uyum kitoblar orasida yurardim. Tushimda ham kitob izlardim. Shunday mo'jizalarga boy holat "Joziba", so'ng Abdulla Oripovning "Ruhim" kitoblarini olganimda ko'proq sodir bo'lgan va meni hayratga solgan.

Do'konidan olgan kitoblarnimni Jaloyirning keng dalalarida, Zarafshon daryosi va Qasoba kanali bo'yilarida mol boqib yurgan kezlarda qo'ldan qo'yimay, yutuqib o'qir edim. Bu kitoblar hayot sirlarini, go'zalliklarini yosh yuragimga hadya etardi.

"Joziba" o'sha kezlarda maktabdan, ayniqsa, adabiyot fanidan olgan bilimlarimni to'ldirib, adabiyotshunoslik, tanqid, tahlil va adabiyotni baholash mezonlaridan tashkil topgan edi. Eng muhimi, kitobni tushunib o'qish kerakligini anglab yetganman. Ijodkor kimligini, badiiy asar nimaligini, she'r, hikoya, doston, roman janrlari jozibasini, siri nimada ekanini yosh aqlim bilan idrok etishga uringannan. Ayniqsa, sevimli ijodkorlarim Abdulla Qahhor, Mirtemir, Maqsd Shayxzoda, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov ijodlari teran va qiziqarli tahlil qilindi. Bu kitob menga adabiyot sirlaridan ilk saboqlar bilan birga adabiyotga muhabbat uyg'otgan va uning bir umrik muxlisiga aylanishimga katta turtki bergan.

1973-yilda Toshkentga o'qishga kelib, ilk sotib olgan kitoblarimdan yana biri Ibrohim G'afurovning "Yonar so'z" kitobi bo'ldi. Bu kitobning mazmun-mundariyasi ancha yuksak va teran edi. O'quvchini adabiyotning siri va sehlri dunyosiga yanada chuqurroq olib kirish bilan birga ichkil fikrlashga, eng muhimi, adabiyotni chuqur o'rganish sirlaridan saboqlar berilgandi. Kitobning "She'r bilan suhbatlar" bobida 60-70-yillar adabiyotga gurullab kirib kelgan shoirlarning ijodiy yangi fikr, yangi so'z orqali qiziqarli yozilgan edi. Shoirlarning yutuqlari bilan birga kamchiliklari, ayrim xatolari ham ro'y-rost tahlil va tanqid qilindi.

Kitobning "Nasrlar, nosirlar" bobida berilgan "Sevgi qissalari" maqolasi ko'proq esimda qolgan. Sababi, maqolada kitoblarini sevib va qidirib o'qiydigan yozuvchilarning asarlari haqida so'z borgan. Abdulla Qahhorning "Muhabbat", Uchqun Nazarovning "G'ubor", "Kunlar", O'tkir Hoshimovning "Shamol esaveradi", "Qalbingga quloq sol", Odil Yoqubovning "Qanot juft bo'ldi", "Matluba" qissalarini o'qib chiqqan bo'lsamda, Ibrohim akaning maqolasi tufayli asarlarning hayotiyli, qahramonlar taqdiri, xarakteri qanchalar mahorat bilan yozilganida hamda bu asarlar adabiyotga va kitobxonga qanday ma'naviy ozuqalar berishi haqidagi o'tli, ibratli fikrlarni o'qib, asar nimaligini tushunganday bo'lganman. Eng muhimi, maqolada qissalarning yutuqlari bilan kamchiliklari ham bosqil bilan, me'yorida aytilgan edi. Lekin men, yosh kitobxon bu asarlarning kamchiligini topolmaganman. Chunki adabiy savodim yetarli bo'lmagan...

Ibrohim G'afurov tufayli bu qissalar haqidagi jo'n fikrlarim nurlanib mulohazalarga aylandi. Ibrohim akaning baholaridan so'ng ayrimlarini qayta o'qib chiqdim. Muallifning haqligiga, teran fikrlariga ishonidim. Hali-hanuz ko'plab ijodkorlar, olimlar Ibrohim G'afurovning tahlilida ishonirish va qoyil qoldirish san'atiga tan berib keladi. Bunda biz olim

va tadqiqotchi, olim va tanqidchi, olim va faylasuf, olim va fikrchan ziyoli, olim va yetuk kitobxon bo'lgan Ibrohim G'afurovni ko'ramiz. Bu ulug' siymo turli rakurslarda bizga samimiy nigoh bilan boqib turgan bo'ladi...

Endi Ibrohim G'afurov va u yozgan kitoblarning chin muxlisiga aylangan edim. Gazeta-jurnallarda bu yurakka yaqin familiyani ko'rsam, o'sha zahoti unda chop etilgan maqola yoki badiiani o'qib chiqardim. Tashna qalbm taskin topardi. Uzoq vaqt o'qiganlarimning toli zavqida yurardim.

Ustozning "Yam-yashil daraxt", "Yurak — alanga", "Lirikaning yuragi" kitoblari sotuvga chiqqanida birinchi qatorida qiziqish va mehr bilan o'qib chiqqanim hamon yodimdada. Ayniqsa, "Yam-yashil daraxt" kitobi menga mo'jiza bo'lib tuyulgan. Biz bu kitobda fikrlari, dunyoqarashi yuksalgan yirik olim Ibrohim G'afurovni ko'ramiz. Adabiyot, asar, kitob haqidagi g'oyat teran mulohazalaridan hayratga va hayajonga tushamiz. Masalan: "Nuqtai nazar haqida" maqolasida bunday deb yozadi: "...Yozuvchi bo'lishni istagan odamda tayinli bir qarash, tayinli bir nuqtayi nazarni yo'qligi yaratgan asar yoxud u yozgan asar qahramonlaridan ham allaqanday g'atali unurtqasizliklarga sabab bo'ladi. Bu yosh adib o'zi nimani yozmoqchi, yozayotgan narsasi orqali



nimalarni ko'zlamda, qanday g'oyaviy, siyosiy, badiiy maqsadlarni ilgari surmoqchi, asarning pafosini kinga qarshi ko'rsatmoqchi yoki kinga xizmat qildirmoqchiligini hali o'zi ham yaxshi, to'la-to'kis anglab yetmagan bo'ladi".


Muallifning bu jiddiy fikr-mulohazalari bugungi adabiyot va yosh ijodkorlar uchun hamon dolzarbligini yo'qotmagan. Yana bir o'rinda Ibrohim G'afurov yosh adiblarga qarata: "...ezgulik uchun, olijanoblik uchun, chinakam odamiylik uchun har damda, har soniyada, har kun kurashish kerakligi"ni alohida ta'kidlaydi.

Bu Ibrohim G'afurovning boqiy saboqlaridan bir tomchi, xolos...

"Roman — tarix oynasi" maqolasida buyuk adib Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanini tarix va zamon nuqtayi nazaridan keng, atroficha tahlil qiladi. Maqolada asarning ayrim kamchiliklari haqida ham ochiq-oydin yozadi. Bu Ibrohim G'afurovning adolati, kuyinchak ijodkorligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Maqola bunday yakunlanadi: "Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasi"ni nosir sifatida kuchga to'lgan yoshda yaratdi. Biz kuchga to'lgan yoshda yozilgan bu asar kitobxon tomonidan uzoq yillar qo'ldan qo'yimay o'qilishini, roman Ulug'bek va zamondoshlari tarixining yorqin hamda haqqoniy adabiy oynasi bo'lib qolishini orzu qilamiz".

Ibrohim G'afurovning "Yurak — alanga" kitobidan o'rta olingan teran va go'zal maqolalardan biri — atoliq adib Abdulla Qahhor haqidagi "Qalbmning kimyo toshi"ni har safar qayta-qayta o'qib, huzur qilaman. Nazarimda, adabiyotshunos va taqrizchilar yozgan, Abdulla Qahhorga bag'ishlangan ancha-muncha maqolalar orasida eng saralaridan biri shu. Muallif hayrat bilan yozganidek: "Qanday go'zal mamlakat bu abadiy siymolar mamlakati!".

Ibrohim G'afurov kitoblarini, maqolalarini o'qiganim sayin u bilan uchrashish va suhbatlashish istagi paydo bo'ladi. Lekin bu ishtioq hadegandada



**Ibrohim G'afurov va kitob, adabiyot va kitob o'ta noyob hodisalar. Tuganmas, boqiy xazinaga o'xshaydi. Yozgan sayin yozing kelaveradi. Xazina to'la quduqqa o'xshaydi. Ibrohim G'afurov bunyod etgan ma'naviy-badiiy ilm dorilfununining ildizini topish, sirlarini bilish mushkul vazifa.**

amalga oshavermadi. Ibrohim akani ko'p marta Abdulla Qahhorning uy-muzeyida bo'ladigan xotira kechalarida uchratardim. Lekin gap-so'zimiz salom-alikdan nariga o'tmasdi. To'g'risi, yaxshi ma'noda Ibrohim akadan hayiqar edim. U haqidagi yaxshi va ibratli gaplarni Kibriyo Qahhorova, Ozod Sharafiddinov va ustozim Ne'mat Aminovdan ko'p eshitganman. Ular Ibrohim akani zukkoligi, bilimdonligi, kamtar-kamsuqumligi, ko'p kitob

## Esse

— San'at yangi soha bo'lgani uchun hozir kutubxonalariga qatnab, san'at turlari va janrlarini o'rganaymiz, — dedim astagina.

— Chuqur o'rganing san'at sohasini. Juda qiziq va ajoyib san'at olami. Yaxshi mutaxassis bo'lsangiz, qiynalmaysiz. San'at muassasalarida ko'proq bo'ling. Mutaxassislar bilan tez-tez suhbatlashing. San'atning turlari ko'p. Ayniqsa, kino, teatr, rassomlik va musiqani yaxshi bilsangiz, yaxshi yozasiz. Ijod qilishni orqaga surib bo'lmaydi. Yozing. G'ayrat qiling, uka...  
Bu ham ustoz Ibrohim G'afurovdan olgan

soladi... Ba'zan bu — kitoblar sehrgari, jahon adabiyotining favqulodda bilimdoni, har bir so'zida donolik ufurib turgan faylasuf chindan ham avliyo, deb o'ylayman. "Avliyo avliyoligidan belgi beradi" degan ibratli gap bor. Ibrohim G'afurovda esa avliyolik belgilarini serob... Yoki Ibrohim G'afurov Fridrix Nitsshening Zardo'shtimika?..

"Men shunday odamni sevamanki, u qalbmni tortiq etadi, u minnatdorlik kutmaydi va minnatdorlik qilmaydi: zotan, u mudom o'zini tortiq etadi va ayamaydi o'zini".  
"Qo'z'gal, ey tusbiz fikr, mening teranliklarimdan tashqari chiq".  
"O'z kuchingiz yetmagan narsalarni orzu qilmang".

"Agar siz yuksaklikka ko'tarilmog'chi bo'lsangiz, o'z oyoqlaringizdan foydalaning! Sizni ko'tarib yurishlariga yo'l qo'ymang, biroving boshiga va yelkasiga o'tirmang" ("Zardo'sht talavolisi"dan).

"Marjonu marvaridlar eslanmasa ham bo'lgay, yuqurlardan qimmatroq turgay donolik...  
Qayerdan boshlanadi donolik?! Va qayerdadir aqlning o'rimi?".

"Kim yurakka donolik ato etdi, kim aqlga ma'no berdi?" ("Ayyub nidosi"dan).  
Ustoz bunyod etgan donolik va aql sayyorasining olting poydevori — KITOB!

Bu qutlug' dargohning devorlari, toshi, naqshlari, oynalari va eshigi ham kitobdan bunyod bo'lgan. Hayratli kitob qasri...

Qasr hovlisidagi katta bog'da daraxtlar emas, turfa kitoblar barq urib o'sib yotibdi. Daraxtlarning katta-kichik gullari ham kitobga o'xshab ochilgan.

Bu qutlug' makonning qo'rg'oni ham, hashamati va ulug'ligi ham kitob. Bu muborak makonni yoritib turadigan nur ham kitob.

Ibrohim G'afurov yozadi: "Alloh nurni yaratgan ekan va O'zi ham shu nur ichida ekan, kitob ham ilmlar, hissiyotlar, aqlarning nurnomasidir. Mening haqiqatim shuki, odam kitoblar olamiga sho'ng'imaganicha hech qachon sayqal topmaydi. Kitoblar inson hayotining xayrli pog'onalaridir".  
Bir o'rinda ustoz bunday deydi: "Men kitob o'qish maqtanarlari bir narsa deb bilmayman. Odam non yeyishi, suv ichishi, havo olishi bilan hech qachon maqtanmaydiku, to'g'rimi?".

Ustoz bir maqolasida bunday deydi:

"...Chingiz Aytmatov o'z oq kemasi, Erkin Vohidov o'z poetik sayyorasi bilan mashhur bo'ldi". Ibrohim G'afurovning o'zi esa tafakkur va fikr sayyorasi bilan adabiyot olamini boyitdi. U maqolalaridan birida "Fikr adabiyotini yaratmoqchiman", deb yozgan edi. Ustoz o'z oldiga qo'yan sharaffi vazifasini yuksak darajada ado etdi.

Bebudiy, Fitrat, Cho'lpon, Izzat Sulton, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonovning yuksak mahorat bilan yaratib ketgan ijod maktablari yonida ustozlarga ehtirom keltirib, o'z tafakkur va fikr sayyorasini bunyod etdi. Buni faqat qutlash, ustoz iste'dodiga tahsin aytish kerak.

Ibrohim aka adabiyotga chuqur mehr qo'yib, o'qib-o'rganish va kitobga jiddiy muhabbat qo'ygan kezlariydoy qatni jilovlagan, undan juda unumli, mo'la-ko'l foydalangan. Ba'zan vaqtni ham uxlatib qo'yib, ijod qilgan bo'lsa, ajab emas. Vaqtdan o'ziga tegishli umrini ortig'i bilan olganiga shubha yo'q. Ustoz yozganidek: "Kitob o'qish uchun ko'p vaqt kerak, ko'p vaqt ajratish kerak".

Bu tafakkur va fikr sayyorasini topganimga ham qirg yildan oshdi. Qirg yildirki, uning atrofida aylanaman, ijod sirlaridan voqif bo'lishga intilaman, ma'naviy oziq olaman, suqrotona dono suhbatlaridan, noyob fikrlaridan bahramand bo'laman. Nima bo'lganda ham, bu qutlug' sayyoradan uzqolashmay, o'rganishga astoydil intilaman. Bu sayyora esa o'z salobati, kuch-qudrati va salohiyati bilan odamni sust torttiradi. Haybati bosib turadi. Ba'zan unga yaqinlasholmay qiynalib yuraman. Ustozning bag'ri keng — Qizilqum cho'llariday bepoyon. Men — tashna, ishtioqmand va tortinchoq talabani kechiradi.

Bu ulug' zot yomonlik va hasad qilganlarni, ko'nglini og'riganlarning barcha-barchasini — kattadan-kichigigacha hanuz kechirib keladi. Ibrohim aka kechirgan lahzalarida limmo-lim, to'lib-toshib qo'yotgan sokin daryoni esga soladi. Adabiyotimizda, atrofimizda shunday bag'rikeng, kechirimli, teran va sokin daryo yana bormikan?.. Kechirish ham donishmandlikning olting sahifasi.

Men bu ulug' daryoni har gal ziyorat qilganimda ruhim yuksaladi, yuragim hayrat bilan uva boshlaydi. O'sha kun men uchun baxtli, yorug' lahzalarni hadya etadi. Uzoq vaqt Ibrohim akaning nurlu siymosi, oq tolalar ishg'ol eta boshlagan kiprikklari, qoshlari ko'z oldimdan ketmaydi. Bu nurlu chehra qaysidir ko'lina kitoblarda o'qiganim nuroniy avliyolarning muborak siymosini yodga

ishidir. Bundan adabiyot, kitob va yosh ijodkorlar, adabiyotga mehr qo'ygan muxlislar yutadi, xolos.

Bir suhbatimizda ustoz bunday degan:

— Eng zo'r gap va fikrni hazrat Naqshband aytgan: "Dil ba yoru dast ba kor". Bundan zo'ri yo'q. Men shu hikmatli fikrga doimo amal qilaman...

Ibrohim G'afurovning iste'dodi va mehnatkashligiga O'zbekiston xalq shoirasi rahmatli Oydin Hojiyeva nihoyatda topib baho bergan edi: "Ibrohim aka ipak qurtiga o'xshab timisiz ishlaydi. Asalariga o'xshab zahmat bilan bol yig'adi".


Erkin Vohidov esa ustozning tug'ilgan kunida: "Ibrohiming adabiyotshunos bo'lmaganida, albatta, shoir bo'lardi", degan edi.

Abdulla Oripov bir suhbatda e'tirof etganidek: "Ibrohim G'afurov tug'ma donishmand".

\*\*\*

O'zbekiston Qahramoni Ibrohim G'afurovning "Yangi asr avlodi" nashriyoti tomonidan chop etilgan 8 jildli kitoblari ham yuqoridagi fikrlarning yorqin isbotidir. Xuddi Abdulla Qohdiriy, Cho'lpon, Oybek, Odil Yoqubov, Said Ahmad, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva asarlari kabi Ibrohim G'afurov asarlari, yuksak tarjimalari bir yuz yillikdan ikkinchi yuz yillikka qutlug' qadamlar bilan o'tdi. O'zbek adabiyotidan o'zining mustahkam o'rini topdi. Bu umrboqiy kitoblar yangi O'zbekistonning yangi avlodlarini, farzandlarini tafakkurning gullagan bo'stonlariga chorlab turishiga ishonamiz. Adabiyotning yangi-yangi ilm sirlari bilan ularning qalblarini nurlantiradi.

Ibrohim G'afurovning sakkiz jildli kitoblari — uning zahmatli, fidoyi va mehnatkash umriga qo'yilgan bebaho haykal. Ibrohim G'afurovning bu kitoblari o'zbek adabiyotining salkam yetmish yillik davrini qamrab olgan bo'lib, adabiyotning yorug' va jozibador oynasidir. Unda adabiy jarayonning yutuqlari, yuksalishlari, izlanishlar, oqsashlar hamda adabiyotga aynan shu davrlarda kirib kelgan katta bir iste'dodli avlod haqidagi tahlil maqolalar, yangicha qarashlar, yangicha tahlillar, qisqasi, adabiyotning o'ziga xos bebaho,



Ustoz "Kitob va shaxs" maqolasida: "Kitob aqlga ham, yurakka ham faol ta'sir ko'rsatadi: aqlni to'ldiradi, yurakning hissiyotlar dunyosini boyitadi, rang-barang qiladi. Lekin kitob o'qish va kitobdan o'z hayotiy maqsadlarida foydalanishning yozilmagan qoidalari, tartiblari bor", deydi.

"Ustoz, shaxsiy kutubxonangizda taxminan qancha kitob bor?" degan savolimizga, u bunday javob bergan: "Hisoblab chiqqan emasman. Uch yu kitobim bor. Ular orasida hali o'qilmaganlari va qayta o'qiladiganlari ko'p. Harakatsiz yotgan kitoblar qilgirimni ezadi. Qo'lmda, ko'ksimda duoga ochilgan ibodatdagi kaftday ochilib tursa, kitob o'z xizmat vazifasini o'tayapti, deymen".

Ibrohim G'afurov va kitob, adabiyot va kitob o'ta noyob hodisalar. Tuganmas, boqiy xazinaga o'xshaydi. Yozgan sayin yozing kelaveradi. Xazina to'la quduqqa o'xshaydi. Ibrohim G'afurov bunyod etgan ma'naviy-badiiy ilm dorilfununining ildizini topish, sirlarini bilish mushkul vazifa. Bu hodisani o'rganish va tadqiq qilish mutaxassis va olimlarning, qolaversa, ijodkorlarning ham

qiziqarli ma'lumotlarga boy ensiklopediyasi, desak aslo mulog'la bo'lmaydi. Bu kitoblar yangi O'zbekistonning yangi adabiyoti ham gullab-yashnashidan hayotiy dalolat va yorqin misoldir.

Davrimiz mutafakkiri Ibrohim G'afurov va kitob mavzusi boqiyli, kengligi, dolzarbligini bilan bir maqolaga siy' masligi ayon bo'lib qoldi...

Ustozga mehr-muhabbatimizni yana bir bor izhor etib, Prezidentimizning Ibrohim G'afurov haqidagi nurlu fikrlarini birga o'qiyamiz:  
"Men muhtaram Ibrohim aka timsolida Navoiy hazratlari kabi pok yurakli, olijanob va matonati insonni ko'raman. Shu bois, ustoz adibimizga "O'zbekiston Qahramoni" degan yuksak unvon berish to'g'risidagi farmonga xursandchilik bilan imzo chekdim.

Ibrohim G'afurov o'zining beqiyos ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan el-yurtimizga juda katta xizmat qilgan ulug' zamondoshimizdir. Isonamanki, u kishi bundan keyin ham o'zining yangi-yangi go'zal va barkamol asarlari bilan barchamizni, butun xalqimizni xushnud etadi".

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM  
MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. Buyurtma — 1112.  
44543 nusxada bosildi.  
**Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'o'z bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov  
Musahih: Nasiba Abdullayeva  
Dizayner: Xurshid Abdullayev  
Manzillimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy